84(5O)6
V89

IYAT DURDONALARI

ERKIN VOHIDOV

Dilda ishq daryochadir ...

Ahli she'r balki kitobim
Nazmi ishq deb ochadir,
Yo'q, kitobim sevgining
Devoniga debochadir.

• SHE'RIY TO'PLAM •




84(5O)6
V89

SHE'RIYAT DURDONALARI

ERKIN VOHIDOV

Dilda ishq daryochadir ...

She'riy to'plam



ZIYO NASHR

Toshkent
2019

UO'K: 821.512.133-1
KBK 84(5O')6
V 89

Muhabbat tuyg'usi insonga Yaratgan tomonidan ato etilgan eng oliy tuyg'udir. Bu tuyg'u asrlar mobaynida shoirlarni qalam tebratishga undab kelgan qudrat manbayidir. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub ushbu she'riy guldasta inson qalbining inja tuyg'usi – muhabbatga bag'ishlangan she'rlaridan saralandi.



ISBN 978-9943-5705-8-0

© E. Vohidov.
© **„Ziyo nashr"** MChJ, 2019.

SEVGI SHUNDAY...

Sevgi shunday navbahorki,
U tikandin gul qilur,
Toshga jon-u til bag'ishlab,
Zog'ni ham bulbul qilur.

Sevgi shunday dard erurki,
Barcha bo'lg'ay mubtalo,
Mubtaloni neki qilsa
Telba bu ko'ngul qilur.

Sevgi shunday tangridirki,
Unga tengdur shoh, gado,
Qulni aylab shoh-u sulton,
Shohni bo'lsa qul qilur.

Sevgi shunday bir olovki,
Jonga undan yo'q omon,
Gulxanida o'rtab-o'rtab,
Bir kun oxir kul qilur.

Sevginingdur hukmi mutlaq,
Istasa shaydolarin
Chashmi giryonidan ummon,
Ohidan dovul qilur.

Sevgiga she'r bitding, Erkin,
Besabab ermaski, ishq
Aylagach ko'ngulni ishg'ol,
She'r ila mashg'ul qilur.

SEVGI

O‘n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog‘ingdan gul termagan kim bor.
Sen haqingda yozib to‘rt satr,
Sirdoshiga asta ko‘rsatib,
Qo‘shni qizga bermagan kim bor.

Dastlab har kim qalam olgan on
Yonib seni kuylar begumon.
Maskan qurib har bir ko‘ngildan,
Oshiqlarni qoldirib tildan,
Shoirlarni qilursan biyron.

Tushdim chog‘i men ham domingga,
Ezgu hislar baxsh etding menga,
Hayotimga zar lavha bo‘lding,
Ilk she’rimga sarlavha bo‘lding,
Xayollarim ulfatdir senga.

Yuragimda his etdim qanot,
Tilsim kabi ochilur hayot,
Visoldagi damlarim shirin,
Hijrondagi g‘amlarim shirin,
Kulib boqar menga koinot...

O‘n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog‘ingdan gul termagan kim bor...

* * *

To tirikdirki tabiat,
To quyosh sochgayki nur,
Uch egiz bordir tushuncha,
Uch bu so'z yondosh bo'lur:
Mohir-u mehr-u mahorat,
Olim-u ilm-u amal,
Oshiq-u ishq-u mashaqqat,
Shoir-u she'r-u shuur.

* * *

Oy fonusin ko'tardi osmon,
Yulduzchalar bo'ldi parvona.
Sayr etaylik, kel, birga, jonon,
Ko'nglim seni istar yagona.

Qo'llarimdan tut o'zing, dilbar,
Oydin yo'lga yetakla meni.
Oshiq bo'lib, ishon, shunchalar
Sevmagandim hech qachon seni.

Ajab, ortiq sarmastman bukun,
Ko'kragimga siqquday olam.
Bu kun lim-lim to'lmish lolagun
Ishq mayiga ko'ngil piyolam.

Kel, yulduzlar to'shalgan yo'ldan
Yetaklasin bizni muhabbat.
G'amlaringni chiqar ko'ngildan,
Shod kunlarni eslaylik faqat.

Sayr etaylik, kel, birga, erkam,
Rozi ketsin bizdan umrbod –
Shodlik uchun yaralgan olam,
Sevmoq uchun berilgan hayot.

KIMNI ETMAS BU KO'NGIL SHAYDO

Dunyo ekan...
Ishq degan savdo
Bormi faqat mening boshimda?!
Kimni etmas bu ko'ngil shaydo,
Kim she'r yozmas mening yoshimda?!

Sevgi ilk bor tushdi-yu qalbga,
Hayotimning bo'ldi mazmuni.
U qo'limga tutqazib qalam,
Ko'zlarimdan oldi uyquni.

Oldi butun fikr-u xayolim,
Ketdi dildan orom, halovat.
Sevgi butun borimni olib,
She'r zavqini qoldirdi faqat.

Borliq olam ko'zimga ming-ming
Go'zallikka to'lib ko'rindi.
Gullar menga oshiq bulbulning
She'r daftari bo'lib ko'rindi...

Ayb etmangiz,
Do'stlar, bu savdo
Bormi faqat mening boshimda?
Kimni etmas bu ko'ngil shaydo,
Kim she'r yozmas mening yoshimda?!

AZGANUSH

Arman qiziga

Ko‘rdim-u lol bo‘ldi aqlim, o‘ngmidi bu
yoki tush,
Bo‘lsa ham o‘ng, yo seni ko‘rgach, boshimdan
uchdi hush.
Sen baland tog‘ uzra erding misli ohu
yoki qush,
Yolvorib men pastda derdim: bir nafas
yonimga tush.
Azganush, hoy, Azganushim,
Azganushjon, Azganush.

Sen xayolning bir damilik jilvasimu
chinmiding,
Yo g‘azallarda bitilgan „ul parivash“
senmiding.
Orazi gul, sochi sunbul, bir tani
siyminmiding,
Balki, Shirin Shirin ermas, sen o‘zing
Shirinmiding?
Azganushim,
Azganushjon, Azganush, hoy,
Azganush.

O‘sma qo‘ydingmu qoshingga, bunchalar tim
qoradir,
Bilmadim, bu qoshlaringdan qancha dillar
poradir,

Rahm qilg'il, bitta o'zbek shunchalar
yolvoradir,
Tush o'zing, yo ayt, yoningga qaysi yo'ldan
boradir?
Azganushjon,
Azganush, hoy, Azganushim,
Azganush.

Boq, bu tog'lar ortida bir o'lka bordir ko'ρ
yiroq.
Men qanotli yo'lchiga bu bir nafaslik yo'l
biroq,
Yur, ρarivash, men bilan yur, bormi senda
ishtiyoq?
Gul tutarman senga so'lmas ul chamandan bir
quchoq.
Azganushim,
Azganushjon, Azganush, hoy,
Azganush.

BIR TOMCHI YOSH

Cho'qqidan bir kichik tosh yumalasa,
Tog'ni qulatgudek suron qiladi.
Ko'zingdan bir tomchi yosh yumalasa,
Tog'day yuragimni vayron qiladi.

Agar ko'ksim uzra qulasa birdan,
Tutmoqqa qodirman tog'lar toshini.
Hayhot, ko'tarolmam kipriklaringdan
Uzilgan bir qatra qayg'u yoshini...

SADOQAT

Keksa qayrag'ochning
Ildizin ochib,
Tortdilar qo'sh arqon solib belidan.
Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,
Sira qo'zg'almasdi
Ungan yeridan...
Nihoyat, gurs etib yerga quladi,
Butab, so'ng ko'tarib ketdilar, biroq –
U o'z panjasida olib jo'nadi
Yashagan yeridan
Bir siqim tuproq.

KUY AVJIDA UZILMASIN TOR

Kuy avjida uzilmasin tor,
She'r yarmida sinmasin qalam.
Yashab bo'lmay umrini zinhor
Bu dunyodan ketmasin odam.

Qo'ldan tushib sinmasin qadah,
Lab tekkanda to'kilmasin may.
To'xtamasin urib turgan qalb,
Boshlab qo'ygan qo'shig'i bitmay.

KECHA VA KUNDUZ

Yorug‘ dunyo bor ziyosin teng
Taqsim etgan kecha, kunduzga.
Nur qadriga yetmay tun, uni –
Sochdi oyga, minglab yulduzga.

Shundan oyning yuzi dog‘ ekan...
Yulduzlar ham xuddi munchoq yosh...
Kunduz esa barcha nuridan
Yaratibdi birgina quyosh.

TUN BILAN YIG'LABDI BULBUL...

Tun bilan yig'labdi bulbul
G'uncha hajri dog'ida.
Ko'z yoshi shabnam bo'lib
Qolmish uning yaprog'ida.

Ko'z yumar bo'lsam, ko'zim –
Oldida paydo gul yuzim,
G'uncha ko'z ochmog'i bor
Bulbul ko'zin yummog'ida.

Asta barg ostida tinglab
Yotgan ermish sho'x sabo,
G'uncha bulbuldan muhabbat
Darsin olgan chog'ida.

Sevgi sahrosida qolmish
Necha Majnundan g'ubor,
Necha Farhod gardi yotgay
Bistunning tog'ida.

G'unchadek chehrangga Erkin
Jon fido etgay, sanam.
Qatra qonidan gul unsin
To muhabbat bog'ida.

BARCHA SHODLIK SENGA BO‘LSIN

Barcha shodlik senga bo‘lsin,
Bor sitam, zorlik menga.
Barcha dildorlik senga-yu,
Barcha xushtorlik menga.

Sen mening jonimni olgin,
Men sening darding olay,
Barcha sog‘lik senga bo‘lsin,
Barcha bemorlik menga.

Senga bo‘lsin barcha husn-u
Menga bo‘lsin barcha ishq,
Kori xunxorlik senga-yu,
Mehri poydorlik menga.

Bu jahonning rohatin ol,
Bor azobin menga ber,
Senga bo‘lsin barcha orom,
Barcha bedorlik menga.

Ol o‘zing koshonalarni,
Menga qo‘y mayxonani,
Barcha hushyorlik senga-yu,
Barcha xummorlik menga.

Senga bo'lsin nurli kunduz,
Menga qolsin qora tun,
Barcha gulshan senga bo'lsin,
Bor tikanzorlik menga.

Sen shahanshohlikni olgin,
Menga qullik bo'lsa bas,
Bor jafokorlik senga-yu,
Bor vafodorlik menga.

Mayli, ostonangda yotsam,
Mayli, quvsang tosh otib,
Bor dilozorlik senga-yu,
Bor dilafgorlik menga.

Senga she'rni bitsin Erkin,
Yirtib otmoq o'z ishing,
Kasbi inkorlik senga-yu,
Aybga iqrorlik menga.

G'UNCHA

Barg ostidan muloyim
Boqqan iboli g'uncha,
Ne sirni saqlagaysan,
Bag'ring nechun tuguncha?

Pinhon siring bayon et,
Ko'ksingni qilma ko'p qon,
Bu yoki ishq atalgan
Bizga ayon tushuncha?

Sevmoq uyat emasdir,
Har kimda bor bu savdo,
Qo'y, ko'p qizarma, g'uncha,
Boshingni egma buncha.

Bo'ldingmi men kabi yo
Bir bevafoga oshiq,
Ayt, sevganingni senga
Parvosi yo'qmi uncha?

Gulgun yanog'ing uzra
Bir tomchi yosh ko'rarman,
Kel, birga dardlashaylik,
Uy-uyda yig'laguncha.

Men ham axir seningdek
Izhori ishq etolmay
Ko'ksimda dudi ohim
Dashtlar aro quyuncha.

Ey g'uncha, sabr aylab
Ummidi vasl qilg'il,
Hijron-u yor jafosi
Bizga faqat buguncha.

SURMA

Aslida kim qarardi
Yotganda xor surma,
Bo'ldi aziz, ko'ziga
Surtganda yor surma.

Ko'zda qaro na iz bul,
Tun dog'idan asarmu,
Mayxona kezdimu yo
Mastonavor surma.

Yor ko'ziga yetishmak
Savdo ekan-ku dushvor,
Yonib ko'mir bo'libdi
Bechora zor, surma.

O'rtanma, kuyma ortiq
Jismim qaro ekan deb,
Ishq yo'lida qarolik
Taqdirda bor, surma.

Ming yil yotib seningdek
G'am tog'ining tagida,
So'ng mayli bo'lsam oxir
Tolega yor, surma.

Yor ketdi-yu, qolibdir
Yo'l o'rtasida Erkin,
Ko'nglida surmaso ko'z,
Ko'zda g'ubor surma.

TOSHKENT SHAHAR YUNUSOBOD TUMANI
№ 13466
AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

LOLA SAYLI

(badiha)

Taklif etdim tong bilan
Dildorni lola sayliga,
Boshim osmonlarga yetdi
Yor deganda „mayliga".

Keng jahon bo'ldi munavvar
Lutfidan, e voh, qani,
Sidqi dildan yursa dilbar
Doim oshiq mayliga.

O'yladim shu tong, necha yil
Dasht-u sahrolar kezib,
Taklifi sayl aylamabdir
Ne uchun Qays Layliga!

Bu xayolim yorga aytsam,
Kuldi-yu, berdi javob:
Ahli ishq ham boqqay, albat,
O'z zamonin zayliga.

Lola terdik dasta-dasta,
Kech bilan qaytdik shahar,
Yo'lda bir-bir tarqatib
Erkin muhabbat xayliga.

YO‘Q EMISH ORZUDA AYB...

Saydi ishq bo‘lgan ko‘ngilga
Qo‘ymangiz behuda ayb.
Bo‘lsa bandi domi sayyod,
Yo‘q erur ohuda ayb.

Bandga tushgan bu ko‘nguldur,
Menda, ayting, ne gunoh,
Dil qushiga dom qo‘ygan
Ul ikki joduda ayb.

Jodu ko‘zlar bandi yolg‘iz –
Sen emas, tutqun yurak,
Avval oxir ko‘hna meros
Ishq degan tuyg‘uda ayb.

Ey ko‘ngil, o‘z mayling ila
Bo‘lding ishq domiga band.
Izlama endi bahona,
Demagin u-buda ayb.

Sevgi dardidan mening ham
Bo‘ldi rangim kahrabo,
Yo‘q iloj, ne naf o‘kinmak
Bo‘lmasa ko‘zguda ayb?

Sen-ku Zuhrosan falakda,
Intizoringman faqat,
Ne ajab, talpinsa ko‘nglim,
Yo‘q emish orzuda ayb.

KIMDA IQTIDOR YO'QDIR...

Kimda iqtidor yo'qdir,
Ilm ila hunar zoye,
Iqtidor berurman deb
Chekma ranj, ketar zoye.

Kimda asli tole yo'q,
Naqdi ham ketar qo'ldan,
Berganing bilan bo'lmas
Oltin-u guhar, zoye.

Kimki behamiyatdir,
Chetdadir nazardan ham,
Chunki behamiyatga
Solganing nazar zoye.

Kimki muzyurak bo'lsa
O'ylama eritmakni,
Ming quyosh yoqib qo'ysang
Qilmagay asar, zoye.

Gar quyon yurakli er
Jazm etar bahodirlik,
Unga arg'umoq esiz,
Tilla naqsh kamar zoye.

Bu „nasihat"ni Erkin
Yozdi bir sabab birlan,
Ko'nglida sezar ammo,
She'ri besamar, zoye.

SENGA BAXTDAN TAXT TILARMAN

Sen g'anisan, menda bisyor ehtiyoj.
Nodirabegim

Senga baxtdan taxt tilarman,
Toledan boshingga toj,
Mulki husningga omonlik,
Toj-u taxtingga rivoj.

Toj-u taxt tashbehidan sen
Ko'hna deb kulsang netay,
Sen axir shohi jahonim,
Men qulingman, ne iloj?

Ne ilojkim, davlatim yo'q
Ganji mehrimdan bo'lak,
Bul evazdan ko'z to'laydur
Qatra-qatra dur xiroj.

Ko'zlarim aylar hamisha
Arzi muhtojlik senga,
Ayt-chi, jonim, bormi senda
Ko'z yoshimga ehtiyoj?

Ko'p nasihat tinglab Erkin
Qilmadi hech tarki ishq.
Bor masalkim, ish yurishmas
Sohibi gar bo'lsa koj.

UYG‘OTMAGIL...

Tushda ko‘rdim dilbarimni,
Ey sabo, uyg‘otmagil,
Olma bir dam vasl shavqin,
Qo‘y, meni qo‘zg‘atmagil.

Necha kunlar axtarurman,
Ko‘zlarimda uyqu yo‘q,
Uyquda topdim nihoyat,
Endi sen ajratmagil.

Sochlarin bo‘ynimga bog‘lab
Shod erurman bu kecha,
Qo‘y, chamanlardan, sabo,
Gul atrini tarqatmagil.

Sevganim, xurshid jamolim
Vaslidan xushnud ko‘ngil,
Sen quyoshni ko‘zlarimga
Bir nafas ko‘rsatmagil.

Lablarimda kulgu, go‘yo
Tushda qand ko‘rgan go‘dak,
Qo‘y, shakar labdin ayurma,
Sen meni yig‘latmagil.

Gar yo‘qotsam bu kecha men
Qayga borgum axtarib,
Tushda ko‘rdim dilbarimni,
Ey sabo, uyg‘otmagil.

UZUM

Termular shabnamli yaproq –
Ostidan pinhon uzum,
Lablaringga yetmoq istab
Tong sahar giryon uzum.

Oftob mashshotasi
Tok sochini nurdan tarab,
Zangining bo'yniga osmish
Shodai marjon uzum.

Toki ishkom misli osmon,
Har taraf yulduz sochur.
Voh ajab, bu ne sinoat,
Yer uzum, osmon uzum.

Tark etib ko'shkin, savatga
Qo'ydi bosh, izlab seni
Charx urib bozor ichida
Bo'ldi sargardon uzum.

Kimki oshiqlikni da'vo
Aylasa shuldir jazo,
Oqibat xum ichra bo'ldi
Mahkumi zindon uzum.

Xum ichida necha yil
Xun bo'lmoq erkan qismati,
Lablaringga yetdi oxir
Bir piyola qon uzum.

Bir qadah gulgun sharob
Tutdim senga, bir ho'plading,
Toleimdan voladurman,
Baxtidan hayron uzum.

Ey dilorom, senga Erkin
Tutdi maydek she'rini,
Dil xumida necha yil
Qon bo'ldi bu devon – uzum.

RASHKIM

Seni yotlar tugul hatto –
Qilurman rashk o'zimdan ham,
Uzoqroq termulib qolsam
Bo'lurman g'ash ko'zimdan ham.

Ko'zim yongay senga nargis –
Ko'zin tiksa chamanlarda,
Yashirmam, lolaga rashkim
Ayon bo'lgay yuzimdan ham.

Degaylarki, charos-u
Ol gilos olmish labingdan rang,
Labing tegsa hasad qilgum
Gilos birlan uzumdan ham.

Seni jonim dedim yolg'iz,
Seni qalbim dedim tanho,
Chimirding qosh, pushaymonman
Qo'pol aytgan so'zimdan ham.

Visol onida ko'z ochsa,
Ne tong, tongdan ko'ngilda ranj,
Judo qilgay meni oy yuz
Xumor ko'z yulduzimdan ham.

Senga o'n to'rtda bog'landim,
Hanuz erkin bo'lolmas dil,
O'zim dog'man, aql kirmas
To'zimsiz o'ttizimdan ham.

DUTORIM TORI IKKIDUR...

Dutorim tori ikkidur:
Biri quvnoq, biri mahzun,
Ki, baytim satri ikkidur:
Biri dilxush, biri dilxun.

Nigorim chashmi ikkidur:
Biri yag'mo, biri jodu,
Bu jodudan ikki ko'zim
Biri Sayhun, biri Jayhun.

Jahonda ikki dilbarning
Biri sensan, biri Laylo,
Jahonda ikki oshiqning
Biri menman, biri Majnun.

Jahonda ikki yulduz bor:
Biri sensan, biri Zuhro,
Misoli ikki nuqtamning
Biri ostin, biri ustun.

Jahonning mehri ikkidur:
Biri sensan, biri oftob,
Tarozu pallasi ikki:
Biri yerdur, biri gardun.

Makoni ikki lochinning –
Biri qoya, biri osmon,
Qanoti ikki shoirning –
Biri o'lka, biri ochun.

G'azal bitmakda sachrabdur
Ko'zimdan yosh, dilimdan o't.
Shu bois ikki satrimning
Biri qatra, biri uchqun.

Kelib bog' sayridan Erkin
G'azalga to'lqin izlardim,
Kirib keldi ikki do'stim:
Biri Sayyor, biri To'lqin.

SEVGINI TORTIB BO‘LURMU...

Sevgini tortib bo‘lurmu
Tosh-u tarozu bilan,
Mehrni o‘lchab bo‘lurmu
Zar bilan, inju bilan?

Ayt, qachon ko‘nglimga solding
Ishq o‘tin, ey sohira,
Dil o‘zi bog‘landimu, yo
Bog‘lading jodu bilan?

Men senga ko‘nglimni ochdim,
Ha deb ayt, yo yo‘q deb ayt,
Buncha qiynaysan dilimni,
O‘rtama kulgu bilan.

Nega senga tik qarolmam,
Ko‘zlaring oftobmi, yo
Oftob aksin ko‘zga solding
O‘ynashib ko‘zgu bilan?

Vasl umidin tark etolmay
Intilar ko‘nglim senga,
Umrini oshiq hamisha
O‘tkazur orzu bilan.

OYNING O‘N BESHI QORONG‘U

„Umrini oshiq hamisha
O‘tkazur orzu bilan“.
Oyning o‘n beshi qorong‘u,
O‘n beshi yog‘du bilan.

Sevgida ko‘ksingga tomgan
Ko‘z yoshingdan foyda yo‘q,
Ishq axir shunday olovki,
O‘chmagay u suv bilan.

Zahmati ishq dard erursa,
Zahmati she’rdur davo,
Chunki og‘uning shifosi,
Deydilar, og‘u bilan.

Barcha zahmat menga bo‘lsin,
Mayli, doim men yashay
Bu ajib totli azob-u
Bu shirin qayg‘u bilan.

Yoshligim – umrim nahori,
Ishq-u she’rsiz ne hayot?
Tongni yolg‘iz g‘aflat ahli
O‘tkazur uyqu bilan.

Yorni men jonim deb aytsam,
Iltifot deb o‘ylama,
U yashar mensiz va lekin
Men tirikman u bilan.

Yuz jilva bilan
Nozli xirom etsa ρechakgul,
Shohigul aning
Raqsiga xonanda bo'libdur.

Qalqib keladir
Suvda nilufar senga ρeshvoz,
Oq shohida hur
Sayr ila yelkanda bo'libdur.

Gulshanda kezib
Xo'ρ sara guldasta tuzibsan,
Erkinning esa
She'ri ρarokanda bo'libdur.

BIR GO'ZALKIM

Bir go'zalkim, husnidan el
Lol emish, hayron emish,
Ishqi birlan dillar obod,
Xonumon vayron emish.

Nuqtadek bir xoli bormish
G'uncha labning ustida,
Ul biri oshkor emishdir,
Ul biri pinhon emish.

Sangi dilning hasratida
Qancha dillar dard chekib,
Ko'zlarining g'urbatida
Qancha ko'z giryon emish.

Barcha shaydolarning ohi
Jam esa mahshar bo'lib,
Xuni dil ko'z yoshlaridan
Bir buyuk to'fon emish.

Qilgay ermish mutribi ishq
O'z maqomini iroq,
Shul sabab ohangi ushshoq
Giryayi afg'on emish.

Ko'yida yotmish ko'ngillar
Misli singan ko'zgudek,
Vohki, har bir parchasida
Ul ruhi tobon emish.

Ul go'zal olmoslik ermish,
Kim parilar zotidan,
G'oyibona oshiq Erkin
Tolibi davron emish.

O‘RTADA BEGONA YO‘Q

Ko‘yida men tosh boshimni
Urmagan ostona yo‘q.
Elda bor shunday masal:
Jon chekmasang jonona yo‘q.

Sevgi vodiysida menga
Teng bo‘lolgay qaysi Qays?!
Ko‘nglim ochsam, ikki dunyo
Bu kabi afsona yo‘q.

Shahr ichida holatimdan
Kulmagan bir oqil-u
Xilvat ichra menga ulfat –
Bo‘lmagan devona yo‘q.

Ne ajabkim, mast bo‘libman
Ko‘zlaringga termilib,
Yetti iqlimda bu yanglig‘
May yo‘g‘-u mayxona yo‘q.

Ishq g‘amin aytsam qalamga
Ich etin kuydirdi ul,
Sevgidek o‘t yo‘q jahonda,
Men kabi so‘zona yo‘q.

Oq qog‘ozim, senga Erkin
Ochdi pinhon ishqini,
Sen bor-u men bor, qalam bor,
O‘rtada begona yo‘q.

ISTAK

Ismi ne ul qushnikim,
na jismi bor, na joni bor,
Izla, topɒ, ne bog'kim ul,
na haddi, na ɒoyoni bor.

Soy nekim ul, bo'lg'ay unda
na qaror-u na kanor,
Suv ne ul, qonmoqning unga
na iloj, imkoni bor.

Tog' nadirkim, cho'qqisini
hech kishi zabt etmagan,
Tirmashib yotquvchi elning
na sanoq, na soni bor.

Arg'umoq nekim, uning bor
na jilov, na jabdug'i,
Andalib nekim, uning
har dilda bir oshyoni bor.

Komronlik unga yetmak,
yetmagan armon bilan
Kim, muvashshah bitdi Erkin,
ko'nglida armoni bor.

QALB SHUNDAY UMMONKI...

Qalb shunday ummonki, uning bag'rida
Dahshatli dolg'alar silsilasi bor.
Qalb shunday zaminki, otash qa'rida
Vulqonlar otguvchi zilzilasi bor.

U bir sayyoradir, yerdek shafaqgun,
U bir olamdirki, bilmas nihoya.
Uni mehvaridan chiqarmoq uchun
Atom jangi emas, bir so'z kifoya.

BIR QADAM

Ikkimizning o'rtamizda
Yo'l, diloro, bir qadam.
Shunchalar mushkulmi qo'ymoq
Senga, zebo, bir qadam.

Ko'zlarimning nuri bo'ldi
Yo'lga poyandoz, kel,
Sen qasam ichdingmi yo, deb –
Qo'ymam aslo bir qadam.

Men seni Zuhro-yu Oy deb
Iltijo qildim va lek
Sen yiroqsan, garchi menga
Oy-u Zuhro bir qadam.

Parda ichra oftobim,
Yonida men nurga zor,
Tashnaman, qirg'oqdadurman –
Bunda daryo bir qadam.

Ne ilojkim, sevgi rasmi
Shul ekan taqdir azal,
Hech pisand ermas masofa,
Mushkul ammo bir qadam.



Intizorlik telba qildi,
Telbalikka yo'q iloj,
Jonidan kechgan kishiga
Ikki dunyo bir qadam.

Bas, shikoyat qilma, Erkin,
Jur'at aylab yo'lga chiq,
Senga bir odim Samarqand,
So'ng Buxoro bir qadam.



KERAK BO‘LSA

Men bor, senga bir haqgo‘y –
Devona kerak bo‘lsa,
Yo‘qman, tili qand nodo‘st
Parvona kerak bo‘lsa.

Istarmi safo ko‘ngling,
Bor unda saroylarga,
Kel bunda, esang dardlik,
G‘amxona kerak bo‘lsa.

Hamdam o‘zim, ey oshno,
Malham so‘zim, ey oshno,
Ikki ko‘zim, ey oshno,
Hayrona kerak bo‘lsa.

Bergum na kerak senga,
Jon senga, yurak senga,
Zardobga to‘lib ketgan
Paymona kerak bo‘lsa.

Bog‘imni makon etgan
Ey siz, gala boyqushlar,
Ko‘ksimga qo‘ning, sizga
Vayrona kerak bo‘lsa.

Vayron chamanim vodiy,
Ko‘ksimda uning dodi,
Faryodga qulog‘ing och,
Farg‘ona kerak bo‘lsa.

Naylay, bu og‘ir so‘zlar,
Quvmang meni, ey do‘stlar,
Oqillar aro bitta
Devona kerak bo‘lsa.

TURK GO‘ZALI

Gulzor ichida gulmidi, rayhonmidi, jambul,
Yo jambul-u rayhon-u gul uzguvchi sanam bul.

Valloh, bu sanam, odam emas, necha so‘z aytsam,
Odam deya bir boqmadi, e voh, ne odam bul?

Chaqmoq kabi bir lahza nasib etdi visoli,
Endi menga yor turk go‘zali hajrida g‘am bul.

Izlab necha kun shahrida ovora bo‘libman,
Istanbul emas, oshiq uchun jonga sitam bul.

Shul yoshda yonib sevgini nazm etsa ne aybkim,
Erkin yuragi ishq o‘tida kuyguchi sham bul.

SEVGI KELSA

Sevgi kelsa qaddi yo ham yosh bo‘lur,
Sevgisiz jonona haykal-tosh bo‘lur.

Mehri yo‘q dildorni quchma, toshni quch,
Tosh senga malham bo‘lur, sirdosh bo‘lur.

Sevgi faslida tikandan gul unar,
Sevgi ko‘yida shamol farrosh bo‘lur.

Ko‘ngli yotlar bazmi jamshidi – azob,
Yor bilan bo‘l, qum yesang ham osh bo‘lur.

Chin muhabbat ming jafoga dosh berar,
Lek xiyonatga u bebardosh bo‘lur.

Bevafolikni yashirsang, yer ko‘mar,
Lekin osmonlarda bir kun fosh bo‘lur.

G‘urbat ichra botdi mag‘ribga quyosh,
Ufq emas gulrang, bu qonli yosh bo‘lur.

Ishq yo‘lin firdavs yo‘li deb anglagil,
Pok diling, Erkin, bu yo‘lda bosh bo‘lur.

SIR AYTAR G'UNCHAGA G'UNCHA...

Sir aytar g'unchaga g'uncha,
Ko'ngil ko'ngilni anglaydir.
Kabutarni kabutar o'ρgay-u,
Gul gulni tanlaydir.

Misoli ikki yulduzni
Qo'shar taqdir yigit, qizni,
Agar yor anglamas bizni,
Iloj ne, sho'r bu manglaydir.

Chamanlar ichra rang tanlab,
Ρarivashlar bo'yaydir lab,
Mening yorim labin, yo rab,
Yurak qonimga ranglaydir.

Qoshi ham o'smadan zangor,
Dema zangor, erur zangbor,
Nechukkim qon to'kib xunxor
Qilichlar bo'yla zanglaydir.

G'am-u hajr-u jafolarda
Yonar bulbul navolarda.
U bulbulmas, samolarda
Mening dodim jaranglaydir.

BIZ ANGLAMAGAN JAHON EKAN ISHQ

Oshiqlik ishi yomon ekan-ku,
Oshiqqa baloyi jon ekan-ku.

Ishq xanda bo'lib ko'ngilga kirgach,
Ko'ngilda to'la fig'on ekan-ku.

Vaslida quvonchi oshikoro,
Hijronda g'ami nihon ekan-ku.

Ishq dard-u azobi, hajri bir yon,
Rashk otashi bir tomon ekan-ku.

Avvalda jahon ko'zingga gulshan,
Oxirda va lek xazon ekan-ku.

Ishq olami o'zga olam erkan,
Biz anglamagan jahon ekan-ku.

Ko'ngilni berib qo'yibmiz oson,
Yor sevmaganing oson ekan-ku.

Har neki yonar, zamonki so'ngay,
Ishq otashi bezamon ekan-ku.

Bor bo'lsin omon u beomonim,
Dardi bila jon omon ekan-ku.

Bog'landim o'z ixtiyorim ila,
Erkin bo'lishim gumon ekan-ku.

SIR AYTAR G'UNCHAGA G'UNCHA...

Sir aytar g'unchaga g'uncha,
Ko'ngil ko'ngilni anglaydir.
Kabutarni kabutar o'ρgay-u,
Gul gulni tanlaydir.

Misoli ikki yulduzni
Qo'shar taqdir yigit, qizni,
Agar yor anglamas bizni,
Iloj ne, sho'r bu manglaydir.

Chamanlar ichra rang tanlab,
Ρarivashlar bo'yaydir lab,
Mening yorim labin, yo rab,
Yurak qonimga ranglaydir.

Qoshi ham o'smadan zangor,
Dema zangor, erur zangbor,
Nechukkim qon to'kib xunxor
Qilichlar bo'yla zanglaydir.

G'am-u hajr-u jafolarda
Yonar bulbul navolarda.
U bulbulmas, samolarda
Mening dodim jaranglaydir.

BIZ ANGLAMAGAN JAHON EKAN ISHQ

Oshiqlik ishi yomon ekan-ku,
Oshiqqa baloyi jon ekan-ku.

Ishq xanda bo'lib ko'ngilga kirgach,
Ko'ngilda to'la fig'on ekan-ku.

Vaslida quvonchi oshikoro,
Hijronda g'ami nihon ekan-ku.

Ishq dard-u azobi, hajri bir yon,
Rashk otashi bir tomon ekan-ku.

Avvalda jahon ko'zingga gulshan,
Oxirda va lek xazon ekan-ku.

Ishq olami o'zga olam erkan,
Biz anglamagan jahon ekan-ku.

Ko'ngilni berib qo'yibmiz oson,
Yor sevmaganing oson ekan-ku.

Har neki yonar, zamonki so'ngay,
Ishq otashi bezamon ekan-ku.

Bor bo'lsin omon u beomonim,
Dardi bila jon omon ekan-ku.

Bog'landim o'z ixtiyorim ila,
Erkin bo'lishim gumon ekan-ku.

MENDA BOR ISHQ ICHRA G'AM...

Menda bor ishq ichra g'am,
Hajr ichra dard ul oyda yo'q,
Dardni dard bilmas kishiga
So'zlamoqdan foyda yo'q.

Ko'z yoshim ko'rganda soy ham
Sharqirab kulsa, ne tong,
Bor mening ko'ksim aro
Toshqinki, hech bir soyda yo'q.

Dard bilan qormish ilohim
Loyimiz taqdir azal,
O'zga dardin anglamoq lek
Biz qorilgan loyda yo'q.

Olam ahli ichra dildosh
Izlama, kezma jahon,
Zarga zor har yerda bordir,
Zorga zor hech joyda yo'q.

Mayli, zar sizlarga bo'lsin,
Menga zor ishq ichra bas,
Bu xazinam ahli dunyo
Ichra hech bir boyda yo'q.

YURAGINGDA MAKON TUTGAN QUL

Bilmam, qandoq, ne sabab, qachon
Hayotingga oshno bo'lgan ul –
Boshi egik, beso'z, beisyon
Yuragingda makon tutgan qul.

Kimga da'vo qilursan, bilmam,
Qaysi maslak, qay tuzum mas'ul?
Ketmas bo'lib joy olmish mahkam
Yuragingda makon tutgan qul.

Iskanjadan yetim zurriyod,
Qatag'ondan beva qolgan tul,
Ko'hna zamin qa'ridan faryod
Yuragingda makon tutgan qul.

Burgut eding, parvozi baland,
Senga ham yor zulfiqor, duldul.
Nechuk uvol musicha monand
Yuragingda makon tutgan qul?

Umr qosh-u kiprik orasi,
Gadolikdan adolik ma'qul.
Qullar ichra eng bechorasi
Yuragingda makon tutgan qul.

Kel, uyqulik ko'zingni och sen,
O'z holingdan qah-qah urib kul.
Shunday kulki, ichingdan qochsin
Yuragingda makon tutgan qul.

QIT'A

Istasang toza ko'ngilga qo'nmasin
zarra g'ubor,
Pok so'z-u pok ish va pok dil,
pok xayol bo'lmoq kerak.

Jism-u jonimga desang,
begona bo'lsin xastalik,
Ishq zavq-u dardi birlan
xastahol bo'lmoq kerak.

Qalbga istarsan shifo gar,
bo'l yomon so'zdan yiroq,
Korvalol ichmoq kerakmas,
kar va lol bo'lmoq kerak.

* * *

Qizim, baxtli kunda dunyoga kelib,
Umrim osmonini bezagan mohim.
Quvonchim, erta-kech niyatlar qilib,
Dedim, to'ylaringni ko'ray ilohim.

Tetapoya yurgan chog'laringda ham
Mehr to'la ko'zim tikib bo'yingga,
Dedim, yuragimda qolmas edi g'am
Qizalog'im, yetsam baxtli to'yingga.

Shukrkim, niyatim bo'ldi-yu yo'ldosh,
Iqbol shundoq kunni nasibim etdi.
To'yingga yetdim-u, voh, shashqator yosh
Ko'zimdan duvillab to'kilib ketdi.

Qiz o'stirgan ota toleyi shudir,
Mehri rishtasini bog'lab joningga –
Ardoqlab, erkalab ulg'aytgach oxir
Mehmon bo'lib qolar xonadoningga.

Ko'narman, ne iloj, umringga oq yo'l,
Ko'zlarim sevinchning yoshiga to'lsin.
Duoga qo'l ochdim, erkam, baxtli bo'l,
Yangi xonadoning muborak bo'lsin!

VATAN QADRI

Chashma qoshida tiniq suv
Qadrini bilmas kishi,
Sayr etib gulshanda gulni
Ko'ziga ilmas kishi.
Vah, bu ne g'aflatki inson –
Ko'ksida tutmish Vatan,
Kim Vatan ichra Vatanning
Shukrini qilmas kishi.
Yurt nedir, yurt dog'i nedir,
Yurtdan ayrilgan bilar,
Anglaguvchi yurt firoqin
Yurtda topilmas kishi.
Ey, vatandoshim, eshit
Bobur-u Furqat nolasin,
Besabab anduh tig'ida
Bag'rini tilmas kishi,
Bilma, farzandim, Vatan hajrini,
Lek qadrini bil –
Kim Vatan qadrini bilmas,
Angla, komilmas kishi.

SEN UCHUN

Men hayotda bor ekanman,
O'ylasam, sen bor uchun,
Ko'ksim ichra qalb urar
Tun-kun o'zingga zor uchun.
Jonga chun sensan tiriklik,
Jon fido bo'lsin senga,
To jahonda bor ekanman,
Borlig'im sen yor uchun.

* * *

Siz mening osmonim, mohitobimsiz,
Mohitobim emas, oftobimsiz,
Ishonchim, quvonchim, yupanchim, yana
Sog'inchim, o'kinchim, iztirobimsiz.

Siz mening qalbimsiz, qalbimdagi she'r,
Bitmoq orzu qilgan bosh kitobimsiz.
Sevgim, umrim, yana umrim davomi,
Baxtim, rohatimsiz va azobimsiz.

Sizdan shodlik ko'rib ko'zlarimda nur,
Alam cheksam mayli, shunga ham shukur,
Bu dardli dunyoda yaxshiki borsiz,
Borligingiz uchun sizga tashakkur.

MAJNUNTOL

– Qubbon sohilida qomating bukib,
Oltin barglaringni ko'l uzra to'kib,
Nimalar haqida surasan xayol,
So'yla, majnuntol?

Yo tongda bir go'zal chiqdimi suvga,
Nigohing tushdimi ko'zi ohuga?
Seni band etdimi labidagi xol,
So'yla, majnuntol?

Ko'l uzra oqqushlar parvoz etdimi
Va yo o'ylaringni olib ketdimi
Sochlaringni silab o'tganda shamol,
So'yla, majnuntol?

Tunda oy aksini ko'rdingmi suvda,
Balki, kutmoqdasan uni behuda,
Yo'qsa nega ma'yus ko'rinding, ne hol,
So'yla, majnuntol?

– Yo'q, fikrim band etgan oqqushlar emas,
Sabo yo parivash boqishlar emas.
Na suv ko'zgusida ko'ringan hilol,
Na chehrasi ol!

Xayolim boisi boshqadir butun,
O'tmishning bu g'amli qissasi uzun.
So'rading, so'ylayin, mayli, quloq sol,
Qalbga tugib ol!

„...Jondan sevar edi bir-birin ular,
Qalbda to'liq edi shirin orzular.
Yigit o'ktam edi, qiz – sohibjamol,
Xulqda barkamol.

Ular shu bog'larda o'ynab-kulardi,
Og'ushim ularga maskan bo'lardi,
Bunda o'tkazardi oshiqlar visol –
Damlarin xushhol.

Anov chamanlarda gul terardilar,
Anov tosh ustida o'ltirardilar.
Ikki qalb go'yo qo'sh kabutar misol,
Tillarida bol...

Ammo ushalmadi shirin orzular...
Bir kecha so'nggi bor uchrashdi ular.
Oh, sevgi gulshani etildi poymol,
So'zlamoq mahol...

Hamon yodimdadir u g'amli ko'zlar,
Shu oqshom aytilgan alamli so'zlar:
„Ota...", „boylik...", „taqdir...",
„nikoh...", „qari chol..."
Va „Xayr, xush qol!.."

Uzoq o'tirdilar shu tun ikki yor,
Ayriliq shomida vafoli nigor
Yigitga qoldirdi ishqidan timsol –
Shohi dastro'mol...

Shu bo'ldi – ularni topmadim zinhor,
So'radim, izladim – ko'rmadim bir bor.
Qaydadir sevganlar, ne kechdi ahvol –
Bilmayman alhol".

Gar so'rsam javobsiz chayqalur bu ko'l,
Daragin keltirmas yellar ham butkul.
Bog'da gul bosh chayqar, men bergan savol
Qarshisida lol...

So'radim, daf'atan jim qoldi bog'lar,
So'radim, cho'kkanday tuyuldi tog'lar.
So'radim, chor atrof ma'yus, bemajol –
Ko'rindi behol...

Jondan sevar edi bir-birin ular,
Qalbda to'lig' edi shirin orzular.
Bu bir sevgi edi, ulug' barkamol,
Oh, ketdi uvol...

Sen bukun sohilda kezib yurganda,
Dildoring yoningda xanda urganda,
Shu kechmish hislari dil mulkin darhol
Qildilar ishg'ol.

Fikrimni band etgan ishq qissasi bu,
Va ishq qissasining alqissasi bu –
Shu sevgi haqqi ham sendagi iqbol
Topmasin zavol!

BULOQ

Buloq Ona-Yer siynasidan
She'r singari qaynab oqadi.
Suvning kumush oyinasidan
Mehrim bo'lib quyosh boqadi.

To'yib ichdim, suv bilan go'yo
Dilga singdi yurt muhabbati.
Tashnaligim qondi-yu, ammo
Yana ortdi qalb harorati.

* * *

Uchrashuvga oshiqadi dugonang,
Ko'zlar visol orzusida charaqlab...
– Bolam, choying sovib qoldi, – der onang,
O'ltirasan uyda kitob varaqlab.
Hali sevgi deb atalgan bastakor
Yuragingda torlar chertib o'tmagan,
Hali hech kim gullar tutib navbahor
Seni visol bog'larida kutmagan.
Kechalaring osudadir, bir odam –
Yodi bilan band bo'lmagan o'ylaring...
„Yosh Verter"ni o'qib bir kun meni ham –
Sevarmikin kimdir deya o'ylading.
G'oyibona yo'llaringga intizor,
Allakimning kutishini bilmaysan.
Derazangni chertib senga ilk bahor,
Bir dasta gul tutishini bilmaysan.
Sen ham uni, u ham seni ko'rmagan,
Qayerdadir yashar lekin dunyoda.
Bog'lar kezib hech gulga yuz burmagan,
U sen uchun har kimdan ham ziyoda...
Uchrashuvga oshiqadi dugonang,
Qalb orziqib, yor oldiga chopadi...
Qayerdadir seni izlar parvonang,
U, albatta, seni izlab topadi.

YO‘LLAR

Yillar osha bir yosh o‘sarman,
Yo‘llar osha bir bosh o‘sarman.
Men sayr etgan gul vodiylarda
Chechaklarga yondosh o‘sarman.

Bog‘lar o‘tgan, qir oshgan yo‘llar,
Ufqlarga tutashgan yo‘llar.
Jimir-jimir nuqralar taqib,
Nur emibsiz quyoshdan, yo‘llar.

Sayr odatim qo‘yarmidim men,
O‘lkam kezib to‘yarmidim men,
Kezmay turib, sayr etmay turib
Uni shuncha suyarmidim men!

MUHABBAT BIRLA...

Muhabbat birla chekkan –
G'urbating rohat bilan tengdur.
Muhabbatsiz va lekin
Ishrating kulfat bilan tengdur.
Unga jon-u jahonim
Boy berib olamda boydurman,
Sening, ey bemuhabbat,
Nusrating hasrat bilan tengdur.
Riyo ahlining aldoq –
Hurmatiga nafratim bordur,
Sening, ey do'st, menga
Nafrating shafqat bilan tengdur.
Muhabbat otashini
Hech qachon do'zaxga teng qilmam,
Nechunkim, menga nurli –
Tal'ating jannat bilan tengdur.
Kechib qo'y, oshiq o'lgach,
Ikki olam mulkidan, Erkin,
Muhabbat ichra barcha –
Zahmating davlat bilan tengdur.

SEVGI OTASHI

Qon emasdur jism aro ul,
Shu'lasidur ishq o'tin,
Mo'y emasdur tan uza bul,
So'xta jonimdan tutun.
Bilmadim, ul otash ichra
O'rtanib bo'lgum ado
Yo samandardek chiqarman
O't arosidan butun.
Mumkin ermas xas ichida
Cho'g'ni pinhon aylamak,
Ishq solib jismimga yong'in,
Oshikor o'ldi bukun.
Ishq-u hajr olamga meros,
Bo'yla merosdur azal
Bizga Farhoddan fidolik,
Bizga Majnundan junun.
Ishq bir oftobdur munavvar,
Zarradan Zuhro qadar –
Ul quyoshning tegrasida
Aylanurlar besukun.
Yor sevib, olding sen, Erkin,
Bu jahondin ko'p saboq,
Bundan ortiq qayda maktab,
Qaydadir dorilfunun?

YO‘Q, HALOVAT ISTAMAYMAN

Yo‘q, halovat istamayman,
Orom bilmas yosh jonim.
To‘lqin urgan ummoncha bor
Yurakdagi tug‘yonim.

Bo‘ronlarga, dovullarga
Peshvoz yurgim keladi.
Daryolarning girdobiga
Ko‘krak urgim keladi.

Tinchlik bilmas odatimdan
Ozor cheksam mayliga.
Olov bo‘lib bir dam yonsam,
So‘ng o‘chsam ham mayliga...

Har mushkulga bardosh berar,
Chidar mening tosh boshim.
Ammo sokin, tinch yashashga
Sira yo‘qdir bardoshim.

YOSHLIK

Yoshlik! Seni kuylamagan kim,
Ertaklaring so‘ylamagan kim,
Qariganda o‘ylamagan kim,
O‘ylab yana kuylamagan kim?
Bitmoq bo‘ldim men ham senga bayt,
Yosh yurakning haqqi bormi, ayt?

Yoshlik, asli mening o‘zimsan,
Keng olamga boqqan ko‘zimsan.
Yozgan she’rim, aytgan so‘zimsan,
Kecham, ertam, ushbu ro‘zimsan.
Bitmoq bo‘ldim sen uchun ash’or,
Ammo o‘zni kuylamoq dushvor.

Yoshlik – gul-u gulg‘uncha ekan,
Bu gul olam turguncha ekan,
Yoshlik – behad tushuncha ekan,
Poyoni yo‘q garduncha ekan.
Bitmoq bo‘ldim men unga doston,
O‘ylarimga topmadim poyon.

Yoshlik, dildan shavq ketgani yo‘q,
Yurak seni tark etgani yo‘q,
Yurak seni tark etgani yo‘q,
Demak, qadringga yetgani yo‘q.
Yoshlik, seni kuylab bilurman,
Ammo bugun yoshlik qilurman.

Yoshlik – ishq-u oshiqlik mayli,
O‘zi Majnun, ham o‘zi Layli,
Subhi olam uning tufayli.
Mayli, unga bitmasam mayli,
Na bir g‘azal, na bir musaddas,
Uning o‘zi she’rdan muqaddas.

Aql menga qilar nasihat:
„Yosh joningni o'rtama bekor".
Yurak bo'lsa yon deydi faqat,
Hayot bizga berilar bir bor.

Aql deydi:
She'ringdan ne naf,
Mashqlaringdan lazzat olar kim?
Yo'q, der menga, o'ltirma o'ylab,
She'r yoz deydi nodon yuragim...

Aql cheksiz fazoga hokim,
Aql hokim olam yuziga.
Borliq unga bo'ysunar,
Lekin
Yurak kirmas uning so'ziga.

Shundan bir yon boshlasa aqlim,
Boshqa yonga yetaklar yurak.
Bilolmayman, qay biri haqli,
Qay biriga ishonmoq kerak.

Aybli emas bunda irodam,
Ma'zur tuting, do'stlar, siz meni.
Aql qancha haqli bo'lsa ham,
Tutar bo'ldim yurak izmini.

U baxsh etgan otashda yondim,
O'zi bo'ldi menga rahnamo.
Unga,
Faqat unga ishondim,
Yurak meni aldamas aslo!

GO'ZALLIK

Mulki borliq ichra bir mahal
Ko'rksizgina olam yaralgan.
Bermoq uchun dunyoga sayqal
Olam aro odam yaralgan.

Shundan beri inson tinmayin
Shu yer uzra ter to'kar hamon.
Yerni go'zal qilgani sayin
Go'zal bo'lar o'zi ham inson.

KUTISH SOATLARI

Nisbat qonunining
Bordir haqiqati.
Lahzaning ma'nosi
Dunyo qadar keng.
Kutish soatlarin
Bir daqiqasi
Visol onlarining
Bir yiliga teng.

Kutish soatlari
Qilur bag'rimni xun,
Betoqat kutganda
Gohi ertani,
Deyman,
Vaqt tanobin bursam,
Uzun kun –
Bir lahzadek o'tsaydi, qani!
Naqadar mushkuldir
Intizorlik dardi.
Insonga bo'ysunmas fursat yaxshiyam, –
Umrim bir necha bor qisqa bo'lardi
Kutish soatlarin olib tashlasam.
Yo'q,
Bu mumkin emas!
Yashamoq toti,
Lazzati mo'tabar bizga har soat.
Axir, odamzodning

Butun hayoti
Kutish onlaridan iborat.
Qo'l ishga,
Bosh o'yga,
Orzuga band dil,
Istiqbol yo'liga ko'zni tutganmiz.
Biz axir million yil,
Balki, milliard yil
Baxtli shu kunlarni kutganmiz.
Hayot boqiy ekan,
Kutish ham boqiy,
Mehnat,
Ijod bilan o'tgan dam halol.
Qanchalar zo'r bo'lsa vasl ishtiyoqi,
Shunchalar lazzatli bo'lg'usi visol.

KIPRIKLARIM

Kipriklarim ikki saf bo'lib,
Bir-biridan yashaydi yiroq.
Bedorligim to'sib vasl yo'lin,
Kipriklarim chekadi firoq.

Men tun bo'yi toshdan gul o'yib,
Ko'zim yumsam tongda bemajol,
Meni asta uxlatib qo'yib,
Kipriklarim aylarmish visol.

OYGA

– Osmon qizi – suluv oydirman,
Ko‘k sahnida oltin yoydirman.
Tunlar fonus tutib qo‘limga
Termulaman sening yo‘lingga,
Menga kelib yetarmisan deb,
Yerga olib ketarmisan deb.
– Tun qo‘ynida porlagan oysan,
Meni imlab chorlagan oysan.
Senga borib yetganim bo‘lsin,
Yerga olib ketganim bo‘lsin.
Lekin bunda bor bir parivash,
Qarashidan dillarda otash.
Yuzi uning mohi tobondir,
Ko‘zi uning ofati jondir.
U qarshingda ko‘rsatsa chiroy,
Ko‘kka qaytib ketmaysanmi, oy?

DILDORGA NOMA YOZDIM

Gul bo'ylarini bog'dan
Keltirgan ey, shabboda,
Dildorga noma yozdim,
Yetkur uni havoda.

Yetkur uni va lekin
Ko'ngliga qayg'u solma,
Sharhi dilim etarda
Bo'lsin tiling navoda.

Hasrat to'la so'zingdan
Ozor topar nigorim,
Ramzi ishora birlan
Qilgin uni ifoda.

Gulbargi lolani elt,
Qo'ygin qadah yoniga,
Yuz hajrida yurak qon
Misli qadahda boda.

Bargi xazonni olib
Yoniga qo'ygin-u ayt:
Bu oshig'ing yuzi deb
Hijron degan baloda.

Gul shoxidan tikan uz,
Gulbargi lolaga sanch,
Ko‘ksimga tig‘ uraymi,
Hech qolmadi iroda.

Sahro g‘uboridan elt,
Hozirligimni bilsin
Men dashti Karbaloni
Kezmoqqa ham piyoda.

Bir tola kiprigimni
Eltib oyog‘iga qo‘y,
Bedor ko‘zim yo‘lida
Har shom ila saboda.

Dildorga noma yozdim,
Yetkur o‘zing, men ojiz,
Gul bo‘ylarini bog‘dan
Keltirgan ey, shabboda.

CHASHMA

O‘ltirar sochin tarab yor
Chashmaning o‘trusida.
Chashma o‘z aksin ko‘rar
Yor chehrasi ko‘zgusida.

Dildan oqqan mehrdek
Yor ko‘ksidan qaynab oqur,
Chunki ko‘z ochmish sanamning
Ko‘zlari orzusida.

Ikki irmoq ko‘z yoshida
Hajr dardidur ayon,
Vasl shavqi zohir o‘lgay
Raqsida, kulgusida.

Gohi urgay o‘zni har yon,
Bilmam, ul devonamu,
Yo xayoli birla mendek
To‘lg‘anur uyqusida?

Sochlaring birla yuzingni
To‘sma, qo‘y, xurshidjamol,
Jilva qilsin, yayrasin
Bir dam yuzing yog‘dusida.

Dilbarim, Erkin dilin sen
Bir tiniq sarchashma bil,
Aks etar ishq oftobi
Qalbining ko‘zgusida.

KIPRIGINGDAN O‘Q UZIB

Kiprigingdan o‘q uzib
Ko‘ksim aro zahm aylading,
Dilni zabt etmoqqa, balki,
Chox o‘yib lahm aylading.

Tashna ko‘nglim ichmasin deb
Ko‘z yoshimdan qatra ham,
Ashk soyining yo‘liga
Kiprigim dahm aylading.

Sen o‘zing kirding ko‘ngilga
G‘am sipohin boshida,
G‘aflat uyqusida erdim,
Ayt, nechuk fahm aylading?

Sen ko‘ngil mulkini toroj,
Qalb uyin vayron etib,
Pora qildingmu tanimni,
Jonima rahm aylading.

Oshiq o‘lding, ey ko‘ngil,
G‘am lashkaridan qo‘rqmagil,
Bari chopqu oldda, Erkin,
Ne uchun vahm aylading?

BARG

Ikki qoshing o'sma birlan
Bo'ldi juft nargisli barg,
Ikki barging qoshida men
Titragayman misli barg.

Titramog'im boisi ul
Bargni tebranmog'idir,
Yoki ohimdanmu titrar
Bo'yla nozik hisli barg.

Barg dedim, ammo bilolmam,
Qay biri xushbo'y ekan,
Ikki mushkin sunbuling yo
Ikki rayhon isli barg.

O'smali qosh dema, zumrad –
Naqsh etilgan sajdagoh,
Kam bukun mehrobga ixlos,
Lek bu ko'p muxlisli barg.

O't yuzingning shu'lasidan
Bu qoraygan qoshmi yo
Subhi bayzodek gul uzra
Shomi savdo tusli barg.

Voh ajab, o'z nargisiga
Banda bo'lmish, ne iloj,
Indamay kiprik – tikan
Zahmin chekar nomusli barg.

Ikki barg ta'rifin Erkin
She'rga solsa tong emas,
Ul biri tashbehli barg-u
Ul biri tajnisli barg.

KO‘ZING

Hajrdan tor bu ko‘ngilga
Shu’laafshondir ko‘zing,
Yo magar ko‘nglim yo‘qolgan
Tor shabistondir ko‘zing.

Ham qorong‘u kechadir ul,
Ham yorug‘ kunduz menga,
Ko‘zlarimda kecha-kunduz
Chun namoyondir ko‘zing.

Husn ahli ichra tengsiz
Sen-ku xoqonsan o‘zing,
Sehr mulki ichra tanho
Shoh-u sultondir ko‘zing.

Turfa bu jodularingga
Termulib lolmen bukun,
Ko‘zlarim hayronlig‘iga
Nega hayrondir ko‘zing?

Hislarimning yelkanida
Bir adashgan yo‘lchiman,
Sevgi bo‘ronin yuborgan
Cheksiz ummondir ko‘zing.

Ko‘zlaring yulduzmi, yo‘q,
Yulduz erur har uchquni,
Qorachig‘ kuygan quyosh-u
Moviy osmondir ko‘zing.

Yor ko‘zin ummon deb aytding,
Unga suv to‘kmoq nechun? –
Bas, ani ko‘rganda, Erkin,
Nega giryondir ko‘zing?

BANDI ZULF

Voh ajabkim, zulfingga dil
Qayta-qayta bo'ldi band.
Necha-necha band bo'lishdan
Ul yemabdir zarra pand.

Ishq so'zin takror etibdir
To'tidek har dam tilim,
Chunki bu til lablaringdan
To'ti yanglig' so'rdi qand.

Shafqat istarman dilingdan,
Gul yuzingdan bir visol,
Ko'zlaringdan may so'rarman,
Lablaringdan no'shxand.

Sunbuling gar dom erursa,
Doimo men band bo'lay,
Dard esa ishqing, bo'lay men
Bir umrga dardmand.

Hajr kuydirgay emishdir,
Vasl o'ldirgay emish,
Kel, meni kuydirma, o'ldir,
Menga o'lmoq ne pisand?

O't yoqib ketding yurakka,
Men tiyarman ko'z yoshim,
Chunki istarman, bu gulxan
Doim o'lsin sarbaland.

Tashlading band aylab avval
Ne uchun Erkin dilin,
Yo'lda qolmish ohu yanglig',
Bo'ynida tori kamand.

DOSTONGA YOZ

Kel, muhabbat lazzatin
Ta'rif etib dostonga yoz,
Turfa gullardan tikib,
Har baytini bo'stonga yoz.

Sevgi nazmiga jahonning
Gulistoni yetmagay.
Nur qalam birlan muhabbat
Sharhini osmonga yoz.

Lolagun aylab yana
Mag'rib-u mashriq ufqini,
Bir g'azal vasliga baxsh et,
Bir g'azal hijronga yoz.

Ta'rifi ishq dardiga
Etgin yurak qonin siyoh,
Dilga yoz dilbar so'zin,
Jonon so'zini jonga yoz.

Dardni sen har kimga aytib
Oh-u faryod etma ko'p,
Kuysa joning, jonajoning,
Shavqi jon jononga yoz.

Bahrasiz oldida, Erkin,
Ochma ko'ngil daftarin,
Neki yozsang, dil so'zini
Anglagan insonga yoz.

SAMAR BO'LG'AY

Seningsiz menga kom yo'qdir,
Asal ichsam zahar bo'lg'ay.
Sening birlan shirin so'zim,
Zahar yutsam shakar bo'lg'ay.

Yuzingga bir umr boqsam
To'yurmi ko'z, qonurmi dil,
Na undan belgi paydo-yu,
Na bundan bir asar bo'lg'ay.

Ikki yor vaslini istab
Ikki ishq so'zin eshitsam,
Ikki ko'zim ko'r-u, ikki
Qulog'im, mayli, kar bo'lg'ay.

Ko'zing uchganda ko'nglimni
Olib kipriklaringga qo'y,
Qosh-u mujgonlaring ko'nglim
Qushiga bol-u par bo'lg'ay.

Tirilsa nogahon Farhod,
Yuzingni ko'rsa ko'zguda,
Kechib Shirinidan yuz yil
Ko'yingda darbadar bo'lg'ay.

Habibim band etar ko'nglim,
Tabibim pand etar doim,
Bilolmasman, bu savdoda
Na sud-u na zarar bo'lg'ay.

Muhabbat nogahon dilda
Yozib kurtak, ochibdir gul,
Umidvor Erkining, jono,
Bu guldan bir samar bo'lg'ay.

HIJRON YUKI

Aylagin jondin judo
Etguncha jonondin judo.
Alisher Navoiy

Roziman tushguncha dilga
Nogahon hijron yuki,
Nogahon, mayli, tanimdan
Ayru bo'lsin jon yuki.

Men bo'lay jondin judo
Bo'lguncha jonondin judo,
Ne kerak jon, ezsa jonim
Bir umr armon yuki.

Lahzayi hijron yukiga
Bistun ukparchadur,
Bir qadoqlik toshcha kelmas
Yer bilan osmon yuki.

Oftob hijronida tong
Sabzalarga qo'ndi nam,
O'ylakim, kipriklarimni
Egdi tong giryon yuki.

Hajrda o'tgan nafasni
Yil bilan o'lchar ko'ngil,
Ayriliqda she'r bitibman,
Unda bir devon yuki...

PARISHONLIK

Doimo dedim, bo'lma
Oshino, parishonlik,
Bo'ldi oshino dilga
Doimo parishonlik.

Dilrabo xayolida,
Ne ajab, parishonmen,
Oshikor etar doim
Dilrabo parishonlik.

Men o'zimcha dilbarning
Yodi birla mag'rurmen,
Deydilar, qilur paydo
Kibr-havo parishonlik.

Kulsa el parishonlik
Odatimga, tong yo'qdir,
Ahli dilga, albatta,
Noravo parishonlik.

Bevafo nigor yodin
Tez unutmoq istarmen,
Lek menda yo'q bu xil
Bebaho parishonlik.

Hajr dardiga qilmas
Vaslidan shifo, endi
Bir davo xayoli-yu,
Bir davo parishonlik.

Yodi birla xud bo'lsam,
Jabri birla bexudmen,
Qildi sarnavo yodi,
Benavo – parishonlik.

Zulfim-u parishonlik
Odat etdi, yo ko'nglim
Ayladi parishonhol
Bu qaro parishonlik.

Keldi qay kuni bu dard,
Xotirimga keltirmam,
Band etibdi Erkinni
Mutlaqo parishonlik.

JON TALASH

Jon bilan dil o‘rtasida
Bo‘ldi ul jonon talash,
Ne ajab, o‘zbek uyida
Doimo mehmon talash.
Mulki dil jon xayli birlan
Yor taloshini qilur,
Qay zamon bo‘lmish ikki el –
O‘rtasida xon talash?
Jon-u dil xunrezlik aylab
Bo‘ldi oxir tilka jon,
Dil esa majruh, anorning
Donasidek qontalash.
Jon-u dil qildi talosh-u
Bunda keldi ming balo,
O‘rtada men mubtalo-yu
Zor-u sargardon talash.
Bu talosh vasfini bitsam
Lolazor bo‘lgay zamin,
So‘zlarim anjumi sig‘may
Lavhayi osmon talash.
Bilmam, ul oy jon-u ko‘ngil –
Birla kelgay, yo ketur,
Vahki, qolmoq birla ketmoq
O‘rtasida jon talash.
Jon-ku, bir parvonadur,
Erkin, uni hech o‘ylama,
Ishq bozorida bo‘lsin
Sen bitar devon talash.

SHOHIGUL

Otashin gul uzdim, ol, bu –
Shohigullar shohi gul.
Gul sochiq yo'llarda bo'lsin
Gul yuzim hamrohi gul.

Shohigul emas bu, o'tlug' –
Yuzlaring hijronida,
Intizor bog' ko'ksidan
Chiqqan fig'on-u ohi gul.

Ishq elining qatra-qatra
Qonidan ungan chechak,
Sevgining oshiq ko'ngillarga
Olovli chohi gul.

Bilgali ko'nglingni, kirsam
Bog'ing ichra har zamon,
Shohigulga yolvorurman,
Sirlaring ogohi gul.

Bu jahon gulzorida
Har bir chechakning o'rni bor,
Xoh tikandir, xoh pechakdir,
Xohi yaproq, xohi gul.

Gul emas, Erkin qo'lingga
Tutdi o'tdek qalbini,
Otashidan qo'rqma, ol,
Ol, kuymagaysan, Mohigul.

* * *

Ajab, yoshlikni ne qildim –
Faqat orzuda o'tkardim.
Hayot oldinda deb bildim.
Shu pok tuyg'uda o'tkardim.
Hamisha nenidur kutdim,
Hamisha yo'lga ko'z tutdim,
Umrning yarmini o'tdim,
Shirin uyquda o'tkardim.
Qo'nib chekkamga oq tola,
Bo'libman qirq yashar bola,
Ki, yoshlik ketdi, men vola,
Nahot, behuda o'tkardim?
Sovir bir kun yurak qonim,
Kelar osudalik onim,
Ajab tug'yonli davronim
Nechun osuda o'tkardim?
Sevib, bilmay sevish rasmin,
Tilab hijronda yor vaslin,
Muhabbatning shirin faslin,
Ko'ring, qayg'uda o'tkardim.
Qolib borliq o'zi birlan,
Boqib hayrat ko'zi birlan,
Kunim she'r dilso'zi birlan
Yoniq joduda o'tkardim.
Bas ey, bas, chekma afsus, dil,
Hamon orzu qil, orzu qil,
Umid – nur, qirqni men qoyil,
Faqat yog'duda o'tkardim.

FIROQ HAQIDA

Sen yiroqda,
Yoring yiroqda,
O'rtanadi joning firoqda.
Tugab borar bardosh – saboting,
Uchay desang yo'qdir qanoting.
Sevar yoring vasliga mushtoq
Kechalaring o'tadi uyg'oq...
Ammo g'amdan boshingni bukma,
Shahlo ko'zdan yoshingni to'kma.
Dilbar, buni firoq dema hech,
Yorim mendan yiroq dema hech.
Chunki oro kirib joningga,
Bag'ring bir kun kelar yoningga.

Seni nohaq
Ranjitdi yoring,
Yo o'zgadan rashk etdi yoring.
Nolishingga quloq solmadi,
Izhoringdan ko'ngli qonmadi.
Ketdi, boqmay hatto qayrilib...
Sen buni ham dema ayriliq.
Dil o'rtama, yig'lama aslo.
Sen bu hijron zulmati aro
Pok sevgingni aylagin chiroq, –
Visol bilan almashur firoq.

GO‘ZALLIK

Mulki borliq ichra bir mahal
Ko‘rksizgina olam yaralgan.
Bermoq uchun dunyoga sayqal
Olam aro odam yaralgan.

Shundan beri inson tinmayin
Shu yer uzra ter to‘kar hamon.
Yerni go‘zal qilgani sayin
Go‘zal bo‘lar o‘zi ham inson.

KUTISH SOATLARI

Nisbat qonunining
Bordir haqiqati.
Lahzaning ma'nosi
Dunyo qadar keng.
Kutish soatlarin
Bir daqiqasi
Visol onlarining
Bir yiliga teng.

Kutish soatlari
Qilur bag'rimni xun,
Betoqat kutganda
Gohi ertani,
Deyman,
Vaqt tanobin bursam,
Uzun kun –
Bir lahzadek o'tsaydi, qani!
Naqadar mushkuldir
Intizorlik dardi.
Insonga bo'ysunmas fursat yaxshiyam, –
Umrim bir necha bor qisqa bo'lardi
Kutish soatlarin olib tashlasam.
Yo'q,
Bu mumkin emas!
Yashamoq toti,
Lazzati mo'tabar bizga har soat.
Axir, odamzodning

Butun hayoti
Kutish onlaridan iborat.
Qo'l ishga,
Bosh o'yga,
Orzuga band dil,
Istiqbol yo'liga ko'zni tutganmiz.
Biz axir million yil,
Balki, milliard yil
Baxtli shu kunlarni kutganmiz.
Hayot boqiy ekan,
Kutish ham boqiy,
Mehnat,
Ijod bilan o'tgan dam halol.
Qanchalar zo'r bo'lsa vasl ishtiyoqi,
Shunchalar lazzatli bo'lg'usi visol.

KIPRIKLARIM

Kipriklarim ikki saf bo'lib,
Bir-biridan yashaydi yiroq.
Bedorligim to'sib vasl yo'lin,
Kipriklarim chekadi firoq.

Men tun bo'yi toshdan gul o'yib,
Ko'zim yumsam tongda bemajol,
Meni asta uxlatib qo'yib,
Kipriklarim aylarmish visol.

OYGA

– Osmon qizi – suluv oydirman,
Ko‘k sahnida oltin yoydirman.
Tunlar fonus tutib qo‘limga
Termulaman sening yo‘lingga,
Menga kelib yetarmisan deb,
Yerga olib ketarmisan deb.
– Tun qo‘ynida porlagan oysan,
Meni imlab chorlagan oysan.
Senga borib yetganim bo‘lsin,
Yerga olib ketganim bo‘lsin.
Lekin bunda bor bir parivash,
Qarashidan dillarda otash.
Yuzi uning mohi tobondir,
Ko‘zi uning ofati jondir.
U qarshingda ko‘rsatsa chiroy,
Ko‘kka qaytib ketmaysanmi, oy?

DILDORGA NOMA YOZDIM

Gul bo'ylarini bog'dan
Keltirgan ey, shabboda,
Dildorga noma yozdim,
Yetkur uni havoda.

Yetkur uni va lekin
Ko'ngliga qayg'u solma,
Sharhi dilim etarda
Bo'lsin tiling navoda.

Hasrat to'la so'zingdan
Ozor topar nigorim,
Ramzi ishora birlan
Qilgin uni ifoda.

Gulbargi lolani elt,
Qo'ygin qadah yoniga,
Yuz hajrida yurak qon
Misli qadahda boda.

Bargi xazonni olib
Yoniga qo'ygin-u ayt:
Bu oshig'ing yuzi deb
Hijron degan baloda.

Gul shoxidan tikan uz,
Gulbargi lolaga sanch,
Ko‘ksimga tig‘ uraymi,
Hech qolmadi iroda.

Sahro g‘uboridan elt,
Hozirligimni bilsin
Men dashti Karbalоni
Kezmoqqa ham piyoda.

Bir tola kiprigimni
Eltib oyog‘iga qo‘y,
Bedor ko‘zim yo‘lida
Har shom ila saboda.

Dildorga noma yozdim,
Yetkur o‘zing, men ojiz,
Gul bo‘ylarini bog‘dan
Keltirgan ey, shabboda.

CHASHMA

O‘ltirar sochin tarab yor
Chashmaning o‘trusida.
Chashma o‘z aksin ko‘rar
Yor chehrasi ko‘zgusida.

Dildan oqqan mehrdek
Yor ko‘ksidan qaynab oqur,
Chunki ko‘z ochmish sanamning
Ko‘zlari orzusida.

Ikki irmoq ko‘z yoshida
Hajr dardidur ayon,
Vasl shavqi zohir o‘lgay
Raqsida, kulgusida.

Gohi urgay o‘zni har yon,
Bilmam, ul devonamu,
Yo xayoli birla mendek
To‘lg‘anur uyqusida?

Sochlaring birla yuzingni
To‘sma, qo‘y, xurshidjamol,
Jilva qilsin, yayrasin
Bir dam yuzing yog‘dusida.

Dilbarim, Erkin dilin sen
Bir tiniq sarchashma bil,
Aks etar ishq oftobi
Qalbining ko‘zgusida.

KIPRIGINGDAN O‘Q UZIB

Kiprigingdan o‘q uzib
Ko‘ksim aro zahm aylading,
Dilni zabt etmoqqa, balki,
Chox o‘yib lahm aylading.

Tashna ko‘nglim ichmasin deb
Ko‘z yoshimdan qatra ham,
Ashk soyining yo‘liga
Kiprigim dahm aylading.

Sen o‘zing kirding ko‘ngilga
G‘am sipohin boshida,
G‘aflat uyqusida erdim,
Ayt, nechuk fahm aylading?

Sen ko‘ngil mulkini toroj,
Qalb uyin vayron etib,
Pora qildingmu tanimni,
Jonima rahm aylading.

Oshiq o‘lding, ey ko‘ngil,
G‘am lashkaridan qo‘rqmagil,
Bari chopqu oldda, Erkin,
Ne uchun vahm aylading?

BARG

Ikki qoshing o'sma birlan
Bo'ldi juft nargisli barg,
Ikki barging qoshida men
Titragayman misli barg.

Titramog'im boisi ul
Bargni tebranmog'idir,
Yoki ohimdanmu titrar
Bo'yla nozik hisli barg.

Barg dedim, ammo bilolmam,
Qay biri xushbo'y ekan,
Ikki mushkin sunbuling yo
Ikki rayhon isli barg.

O'smali qosh dema, zumrad –
Naqsh etilgan sajdagoh,
Kam bukun mehrobga ixlos,
Lek bu ko'p muxlisli barg.

O't yuzingning shu'lasidan
Bu qoraygan qoshmi yo
Subhi bayzodek gul uzra
Shomi savdo tusli barg.

Voh ajab, o'z nargisiga
Banda bo'lmish, ne iloj,
Indamay kiprik – tikan
Zahmin chekar nomusli barg.

Ikki barg ta'rifin Erkin
She'rga solsa tong emas,
Ul biri tashbehli barg-u
Ul biri tajnisli barg.

KO‘ZING

Hajrdan tor bu ko‘ngilga
Shu’laafshondir ko‘zing,
Yo magar ko‘nglim yo‘qolgan
Tor shabistondir ko‘zing.

Ham qorong‘u kechadir ul,
Ham yorug‘ kunduz menga,
Ko‘zlarimda kecha-kunduz
Chun namoyondir ko‘zing.

Husn ahli ichra tengsiz
Sen-ku xoqonsan o‘zing,
Sehr mulki ichra tanho
Shoh-u sultondir ko‘zing.

Turfa bu jodularingga
Termulib lolmen bukun,
Ko‘zlarim hayronlig‘iga
Nega hayrondir ko‘zing?

Hislarimning yelkanida
Bir adashgan yo‘lchiman,
Sevgi bo‘ronin yuborgan
Cheksiz ummondir ko‘zing.

Ko‘zlaring yulduzmi, yo‘q,
Yulduz erur har uchquni,
Qorachig‘ kuygan quyosh-u
Moviy osmondir ko‘zing.

Yor ko‘zin ummon deb aytding,
Unga suv to‘kmoq nechun? –
Bas, ani ko‘rganda, Erkin,
Nega giryondir ko‘zing?

BANDI ZULF

Voh ajabkim, zulfingga dil
Qayta-qayta bo'ldi band.
Necha-necha band bo'lishdan
Ul yemabdir zarra pand.

Ishq so'zin takror etibdir
To'tidek har dam tilim,
Chunki bu til lablaringdan
To'ti yanglig' so'rdi qand.

Shafqat istarman dilingdan,
Gul yuzingdan bir visol,
Ko'zlaringdan may so'rarman,
Lablaringdan no'shxand.

Sunbuling gar dom erursa,
Doimo men band bo'lay,
Dard esa ishqing, bo'lay men
Bir umrga dardmand.

Hajr kuydirgay emishdir,
Vasl o'ldirgay emish,
Kel, meni kuydirma, o'ldir,
Menga o'lmoq ne pisand?

O't yoqib ketding yurakka,
Men tiyarman ko'z yoshim,
Chunki istarman, bu gulxan
Doim o'lsin sarbaland.

Tashlading band aylab avval
Ne uchun Erkin dilin,
Yo'lda qolmish ohu yanglig',
Bo'ynida tori kamand.

DOSTONGA YOZ

Kel, muhabbat lazzatin
Ta'rif etib dostonga yoz,
Turfa gullardan tikib,
Har baytini bo'stonga yoz.

Sevgi nazmiga jahonning
Gulistoni yetmagay.
Nur qalam birlan muhabbat
Sharhini osmonga yoz.

Lolagun aylab yana
Mag'rib-u mashriq ufqini,
Bir g'azal vasliga baxsh et,
Bir g'azal hijronga yoz.

Ta'rifi ishq dardiga
Etgin yurak qonin siyoh,
Dilga yoz dilbar so'zin,
Jonon so'zini jonga yoz.

Dardni sen har kimga aytib
Oh-u faryod etma ko'p,
Kuysa joning, jonajoning,
Shavqi jon jononga yoz.

Bahrasiz oldida, Erkin,
Ochma ko'ngil daftarin,
Neki yozsang, dil so'zini
Anglagan insonga yoz.

SAMAR BO'LG'AY

Seningsiz menga kom yo'qdir,
Asal ichsam zahar bo'lg'ay.
Sening birlan shirin so'zim,
Zahar yutsam shakar bo'lg'ay.

Yuzingga bir umr boqsam
To'yurmi ko'z, qonurmi dil,
Na undan belgi paydo-yu,
Na bundan bir asar bo'lg'ay.

Ikki yor vaslini istab
Ikki ishq so'zin eshitsam,
Ikki ko'zim ko'r-u, ikki
Qulog'im, mayli, kar bo'lg'ay.

Ko'zing uchganda ko'nglimni
Olib kipriklaringga qo'y,
Qosh-u mujgonlaring ko'nglim
Qushiga bol-u par bo'lg'ay.

Tirilsa nogahon Farhod,
Yuzingni ko'rsa ko'zguda,
Kechib Shirinidan yuz yil
Ko'yingda darbadar bo'lg'ay.

Habibim band etar ko'nglim,
Tabibim pand etar doim,
Bilolmasman, bu savdoda
Na sud-u na zarar bo'lg'ay.

Muhabbat nogahon dilda
Yozib kurtak, ochibdir gul,
Umidvor Erkining, jono,
Bu guldan bir samar bo'lg'ay.

HIJRON YUKI

Aylagin jondin judo
Etguncha jonondin judo.
Alisher Navoiy

Roziman tushguncha dilga
Nogahon hijron yuki,
Nogahon, mayli, tanimdan
Ayru bo'lsin jon yuki.

Men bo'lay jondin judo
Bo'lguncha jonondin judo,
Ne kerak jon, ezsa jonim
Bir umr armon yuki.

Lahzayi hijron yukiga
Bistun ukparchadur,
Bir qadoqlik toshcha kelmas
Yer bilan osmon yuki.

Oftob hijronida tong
Sabzalarga qo'ndi nam,
O'ylakim, kipriklarimni
Egdi tong giryon yuki.

Hajrda o'tgan nafasni
Yil bilan o'lchar ko'ngil,
Ayriliqda she'r bitibman,
Unda bir devon yuki...

PARISHONLIK

Doimo dedim, bo'lma
Oshino, parishonlik,
Bo'ldi oshino dilga
Doimo parishonlik.

Dilrabo xayolida,
Ne ajab, parishonmen,
Oshikor etar doim
Dilrabo parishonlik.

Men o'zimcha dilbarning
Yodi birla mag'rurmen,
Deydilar, qilur paydo
Kibr-havo parishonlik.

Kulsa el parishonlik
Odatimga, tong yo'qdir,
Ahli dilga, albatta,
Noravo parishonlik.

Bevafo nigor yodin
Tez unutmoq istarmen,
Lek menda yo'q bu xil
Bebaho parishonlik.

Hajr dardiga qilmas
Vaslidan shifo, endi
Bir davo xayoli-yu,
Bir davo parishonlik.

Yodi birla xud bo'lsam,
Jabri birla bexudmen,
Qildi sernavo yodi,
Benavo – parishonlik.

Zulfim-u parishonlik
Odat etdi, yo ko'nglim
Ayladi parishonhol
Bu qaro parishonlik.

Keldi qay kuni bu dard,
Xotirimga keltirmam,
Band etibdi Erkinni
Mutlaqo parishonlik.

JON TALASH

Jon bilan dil o‘rtasida
Bo‘ldi ul jonon talash,
Ne ajab, o‘zbek uyida
Doimo mehmon talash.
Mulki dil jon xayli birlan
Yor taloshini qilur,
Qay zamon bo‘lmish ikki el –
O‘rtasida xon talash?
Jon-u dil xunrezlik aylab
Bo‘ldi oxir tilka jon,
Dil esa majruh, anorning
Donasidek qontalash.
Jon-u dil qildi talosh-u
Bunda keldi ming balo,
O‘rtada men mubtalo-yu
Zor-u sargardon talash.
Bu talosh vasfini bitsam
Lolazor bo‘lgay zamin,
So‘zlarim anjumi sig‘may
Lavhayi osmon talash.
Bilmam, ul oy jon-u ko‘ngil –
Birla kelgay, yo ketur,
Vahki, qolmoq birla ketmoq
O‘rtasida jon talash.
Jon-ku, bir parvonadur,
Erkin, uni hech o‘ylama,
Ishq bozorida bo‘lsin
Sen bitar devon talash.

SHOHIGUL

Otashin gul uzdim, ol, bu –
Shohigullar shohi gul.
Gul sochiq yo'llarda bo'lsin
Gul yuzim hamrohi gul.

Shohigul ermas bu, o'tlug' –
Yuzlaring hijronida,
Intizor bog' ko'ksidan
Chiqqan fig'on-u ohi gul.

Ishq elining qatra-qatra
Qonidan ungan chechak,
Sevgining oshiq ko'ngillarga
Olovli chohi gul.

Bilgali ko'nglingni, kirsam
Bog'ing ichra har zamon,
Shohigulga yolvorurman,
Sirlaring ogohi gul.

Bu jahon gulzorida
Har bir chechakning o'rni bor,
Xoh tikandir, xoh pechakdir,
Xohi yaproq, xohi gul.

Gul emas, Erkin qo'lingga
Tutdi o'tdek qalbini,
Otashidan qo'rqma, ol,
Ol, kuymagaysan, Mohigul.

* * *

Ajab, yoshlikni ne qildim –
Faqat orzuda o'tkardim.
Hayot oldinda deb bildim.
Shu ρok tuyg'uda o'tkardim.
Hamisha nenidur kutdim,
Hamisha yo'lga ko'z tutdim,
Umrning yarmini o'tdim,
Shirin uyquda o'tkardim.
Qo'nib chekkamga oq tola,
Bo'libman qirq yashar bola,
Ki, yoshlik ketdi, men vola,
Nahot, behuda o'tkardim?
Sovir bir kun yurak qonim,
Kelar osudalik onim,
Ajab tug'yonli davronim
Nechun osuda o'tkardim?
Sevib, bilmay sevish rasmin,
Tilab hijronda yor vaslin,
Muhabbatning shirin faslin,
Ko'ring, qayg'uda o'tkardim.
Qolib borliq o'zi birlan,
Boqib hayrat ko'zi birlan,
Kunim she'r dilso'zi birlan
Yoniq joduda o'tkardim.
Bas ey, bas, chekma afsus, dil,
Hamon orzu qil, orzu qil,
Umid – nur, qirqni men qoyil,
Faqat yog'duda o'tkardim.

FIROQ HAQIDA

Sen yiroqda,
Yoring yiroqda,
O‘rtanadi joning firoqda.
Tugab borar bardosh – saboting,
Uchay desang yo‘qdir qanoting.
Sevar yoring vasliga mushtoq
Kechalaring o‘tadi uyg‘oq...
Ammo g‘amdan boshingni bukma,
Shahlo ko‘zdan yoshingni to‘kma.
Dilbar, buni firoq dema hech,
Yorim mendan yiroq dema hech.
Chunki oro kirib joningga,
Bag‘ring bir kun kelar yoningga.

Seni nohaq
Ranjitdi yoring,
Yo o‘zgadan rashk etdi yoring.
Nolishingga quloq solmadi,
Izhoringdan ko‘ngli qonmadi.
Ketdi, boqmay hatto qayrilib...
Sen buni ham dema ayriliq.
Dil o‘rtama, yig‘lama aslo.
Sen bu hijron zulmati aro
Pok sevgingni aylagin chiroq, –
Visol bilan almashur firoq.

Sen sevasan,
Sevmaydi yoring,
Yor ko'ngliga yetmaydi zoring.
Sevganingni yoki bilmaydi,
Yo bilsa ham ko'zga ilmaydi.
Ayriliqda yonasan biroq –
Sen buni ham atama firoq.
Chunki sevging bo'lsa agar chin
Hijronlarni qilar chilparchin.
Ishon faqat, hech tolmay ishon,
Ishonch bo'lsa chekinar hijron...

Yoring bo'lsa
Yoningda doim,
Yoring bo'lsa – ko'rkam, muloyim,
Har oningni kechirsang birga,
Birga bo'lsang butun umrga,
Hayot qurib, ulab jonga jon,
Yashasang-u yillar yonma-yon –
Ammo bo'lsa ko'ngillar yiroq,
Dunyoda yo'q bundan zo'r firoq.
Bu firoqqa sira yo'q davo,
Bu firoqqa yo'liqma aslo!

* * *

Oydin kecha,
Yog‘ar ko‘kdan zar,
O‘yga cho‘mib deding, gul yuzim:
„Osmon to‘la sonsiz yulduzlar,
Qaysi ekan mening yulduzim?

U bir kichik zarradir, xolos,
Yiroqdadir, ilinmas ko‘zga...“
Ajab, deyman,
Kim etmish qiyos
Odamzodni so‘nik yulduzga?!

Qalb ko‘ksimda yonib o‘rgangan,
E’tiqodim shu erur azal:
Ming yil xira yulduz bo‘lgandan,
Bir dam yoniq sham bo‘lgan afzal.

Asriy hayot kerakmas menga,
Ishq zavqiga qonib yashasam,
Parvonaning umri bas menga –
Faqat yonib,
Yonib yashasam.

Shu o‘y meni band etar ko‘pdan,
Shu sababli deyman: gul yuzim,
Yulduz izlab netasan ko‘kdan,
O‘zingsan-ku mening yulduzim.



O‘zingsan-ku mening yulduzim,
Surayyodan, Zuhrodan ortiq.
Ko‘k toqidan olmadek uzib,
Birin senga qilaymi tortiq?

Kel, istasang oy halqasini
Qulog‘ingga taqay, dilbarim.
Xushnud etsa yulduzlar seni,
Etagingga to‘kayin barin.

Faqat, jonim, o‘zingni zinhor
Yulduzlarga etmagil qiyos.
Yonib yasha to tanda jon bor,
Quyosh bo‘lgin, azizim, quyosh!



SHAHR ARO...

Shahr aro ko‘zlardan o‘zga
Dilkusho maskan topay,
Unda o‘zni sen bilan
Bir jon ko‘ray, bir tan topay.
Necha kundirkim, yo‘qolmish
Dilda oromim, uni –
Bu kecha izlab sening
Jodu qarog‘ingdan topay.
Tun qorong‘usida men
Soching shabistonin ko‘ray,
Tongotarda yuzlaringni
Tong kabi ravshan topay.
Men ko‘ngil ko‘yiga kirsam,
Bilmayin bossam tikan,
Tush bilib, ta’bir etingkim,
O‘ngda bir gulshan topay.
Ayri til birlan riyo
Bersa menga yuz yaxshi do‘st,
Do‘st kerakmas, to‘g‘ri so‘zlab
Bir halol dushman topay.
Neki maqsud bor ko‘ngilda,
Pok ko‘ngil birlan yetib,
Neki baxt topsam jahonda,
Bir o‘zing birlan topay:
Bir umr Erkin muhabbat
Otashida yonmasam,
O‘tga chulg‘ansin vujudim,
Qatlima gulxan topay.

SHAHR ARO...

Shahr aro ko'zlardan o'zga
Dilkusho maskan topay,
Unda o'zni sen bilan
Bir jon ko'ray, bir tan topay.
Necha kundirkim, yo'qolmish
Dilda oromim, uni –
Bu kecha izlab sening
Jodu qarog'ingdan topay.
Tun qorong'usida men
Soching shabistonin ko'ray,
Tongotarda yuzlaringni
Tong kabi ravshan topay.
Men ko'ngil ko'yiga kirsam,
Bilmayin bossam tikan,
Tush bilib, ta'bir etingkim,
O'ngda bir gulshan topay.
Ayri til birlan riyo
Bersa menga yuz yaxshi do'st,
Do'st kerakmas, to'g'ri so'zlab
Bir halol dushman topay.
Neki maqsud bor ko'ngilda,
Pok ko'ngil birlan yetib,
Neki baxt topsam jahonda,
Bir o'zing birlan topay:
Bir umr Erkin muhabbat
Otashida yonmasam,
O'tga chulg'ansin vujudim,
Qatlima gulxan topay.

UCH BALODAN SAQLASIN

Uch balodan saqlasin,
Charxi balokash bo'lmasin,
Do'st mehrsiz, dardsiz ulfat,
Yor jafokash bo'lmasin.

Dil agar payvand erursa
Ne jafo chekmak firoq,
Hech ko'ngil sevgan ko'ngil –
Yonida yakkash bo'lmasin.

Sevgi barq-u otashida
O'rtanishni g'am demam,
Oshiqona bu dilim
Bebarq-u otash bo'lmasin.

Yuzta jonim bo'lsa har bir
Kokilingga bir pilik,
Tolasiga o'zgalarning
Ko'ngli chirmash bo'lmasin.

Neki dard bor, neki kulfat
Bu jahonning kunjida,
Men bo'lay yuz ming giriftor,
Lek mahvash bo'lmasin.

Men yoniq qalbimni tutdim
Senga kaft uzra qo'yib,
Ol uni, o'ynab va lekin
O'tga tashlash bo'lmasin.

Yorni oftob deding, Erkin,
Kuymagin hijronida,
Oftob goh berkinur,
Bundan diling g'ash bo'lmasin.

JON TUGAMAYDIR

Olamda ayol madhiga doston tugamaydir,
Chun ishq tugamas, ishqdagi armon tugamaydir.
Nazm etdi tugal Hofiz-u Sa'di-yu Navoiy,
Ne qoldi, demang, shoiri davron tugamaydir.
Gar arsayi ash'or esa ishq bahsiga maydon,
Maydonda chavandoz ko'p-u, maydon tugamaydir.
Husn ahli uchun bo'lmas ado noz-u adolar,
Ishq ahli uchun nola-yu afg'on tugamaydir.
Har neki yonar, yo'q bo'ladir, lekin ajabkim,
Mangu yonarak ishq o'tida, jon tugamaydir.

NA QILSIN

Ishq aqlidir parishon,
O‘zga bino na qilsin.
She’r aqlidir devona,
Kibr-u havo na qilsin.

Husn asli bevafo-ku,
Gar unga bo‘lsa mag‘rur,
Husn ahlining o‘zida
Sidq-u vafo na qilsin.

Ishq ofatiga oshiq
Dil amri birla kirgay,
Dard ila shod ekan ul,
Malham, davo na qilsin.

Ko‘rsat o‘zingni – shu bas,
Ko‘nglimda boshqa o‘y yo‘q.
Ayb etmagil tikilsam,
Ko‘zda balo na qilsin.

Yor vaslidan topolmas
Erkin diliga taskin,
Afsus demakdin o‘zga
U mubtalo na qilsin...

GULNORINI O‘P...

Uyquda topsang nigoring,
Asta gulnorini o‘p.
Ochmasa chashmin, yumuq ul
Chashmi xummorini o‘p.

Sen-ku uyg‘og‘ida vosil
Bo‘lmagaysan la’liga,
Uyg‘onib achchiq so‘z aytmay,
La’li shahdborini o‘p.

Ro‘zgoring qora qilmay
Zulfini ko‘ksingga bos,
Ko‘ksingga botmasdan avval
Kiprigi xorini o‘p.

Vasl uyi mangu emasdir,
Ishqdami boqiy emas,
Qomating yo bo‘lmasidan
Qoshi zangborini o‘p.

Taqdir umringning xatiga
Nuqta qo‘ymasdan burun
Xatti birlan labga posbon
Xoli raxdorini o‘p.

Yorning uyqusi g‘animat,
Sen bu tun bedor bo‘l,
Bir-bir aytmayman, dilingga –
Xush nadir, borini o‘p.

Uyg'onib so'ng, mayli, Erkin,
Dorga ossin yor seni,
Ko'zga surt sirtmog'ini-yu,
Tiz cho'kib dorini o'p.

EL NETIB TOPQAY MENI...

(Navoiy g'azaliga muxammas)

Ko'nglim aytur, sevgi domiga asir tayyoraman,
Der ko'zim, hijron tuni zor yig'lamoqdin qoraman
Jon degay, o't oraman, tan aytadir, ming poraman,
To muhabbat dashti bepoyonida ovoraman,
Har baliyat kelsa ishq oshubidin bechoraman.
Ul xazon faslidagi sargashta bir yaproq manam,
Ayrilibdurman chamandan, maskanim dashti adam,
Izlamang hargiz nishonim, topmagaysiz zarra ham,
El netib topg'ay menikim, men o'zimni topmasam,
Bo'ylakim ishq-u junun sahrosida ovoraman.
Karbalo dashtida ko'rgan ohular birlan mani,
Angladi Majnun bilan bir jon mani, bir tan mani.
Yondi jon, bir laylivashning dardi kuydirgan mani,
Oh dudi ichra bir uchqun kabi ko'rgan mani
Bildikim, hijron tuniga kavkabi sayyoraman.
Qoshlaring hijronida yoydek egilsam ne ajab,
G'uncha la'ling ishqida bag'rimni tilsam ne ajab,
Sham'i husning shavqida o'tga yoqilsam ne ajab,
Kecha o'rtansam, sahar faryod qilsam ne ajab.
Ishq aro parvona-yu bulbulga men hamkoraman.
Xo'blar vasli g'animat, xizmatini ayla xo'b,
Nuri-diydang sham' etib tut, qomatingni ayla cho'b,
Borida qadriga yet, ketganda tuprog'ini o'p,
Ey Navoiy, bordi deb, ahbob ta'zir etma ko'p,
It kabi men ergashib ul korivonga boraman.

SAKKIZINCHI MART

Bukun o'zgachadir jilvayi olam,
Bukun o'zgachadir borliqda xanda.
Bukun ko'zlarimga go'yo quyosh ham
Shafaq gulxanida tarang chirmanda.

Bukun tong egnida atlasdan ko'ylak,
Shafaqqa o'ralgan qizlarday gulgun.
Ilk bora ko'z ochib chiqqan boychechak
Sanamlar qo'liga intizor bukun.

Bukun go'zallikning qutlug' ayyomi,
Qizlarning ko'klamga mosligidir bu.
Yuraklar limmo-lim muhabbat jomi,
Bahor kelganining rostligidir bu.

Ha, bukun elda ham, dilda ham bahor,
Shodlik xandalari falakka tutash.
Bukun ertalabdan yigitlar qator,
Attor do'konida atirlar talash.

Otaxon chollar ham tavoze bilan
Yetmish yillik yorin sizlab turibdi.
Bukun shoirlar ham o'z bisotidan
Eng yaxshi baytlarni izlab turibdi.

Ovora bo'lmang, ey hassos shoirlar,
Ayol tasviriga ojiz erur she'r.
Chunki yor zulfining bir tolasiga
Tashbih topa olmay o'tgan Alisher.

Sevgi asrorini izlamay qo'ying,
Topilmas narsani qidirmoq nechun?
Muhabbat sirini bilolmay o'tgan
Karbalo dashtida ovora Majnun.

Ming yilcha muqaddam Hofizi Sheroz
Bir go'zal xoliga bo'lgandi banda.
Tasavvur qilolmam, ne der edi u
Bukun anjumanda o'zi bo'lganda.

Balki, aytar edi u bir loyiq so'z,
Balki, tashbehlari bo'lar edi fosh.
Chunki ko'zingizga teng qaysi yulduz,
Yuzingiz oldida nimadir quyosh?

Siz, axir, siynasi samoni quchgan,
Sizning izmingizda zamin-u zamon.
Siz oy kemasida oy bo'lib uchgan,
Yorug' chehrangizdan olam charog'on.

Bukun o'zgachadir jilvayi olam,
Bukun o'zgachadir borliqda xanda.
Bukun ko'zlarimga hatto quyosh ham
Shafaq gulxanida tarang chirmanda.

* * *

Tinglayman ko‘p o‘zbek so‘zlarin
Xorazmcha talaffuzini.
Xush ko‘raman u yer qizlarin
„Qo‘ysangiz-a“ degan so‘zini.

Ular buni aytsa muloyim,
Tillaridan asal to‘kilar...
Xorazmlik qizlarni doim
„Qo‘ysangiz-a“ degizgim kelar.

* * *

Parivash chehrasiga bersa oro,
Qilar hayrat bilan ko‘zgu tamosho.

Ketar jonim olib karvonda yorim,
G‘uborin ko‘zlarimga ayladim jo.

Meni uyquga eltdi dardi hijron,
Xayoli kiprigimda bo‘ldi paydo.

Kular gul yig‘laganda bulbuli zor,
Men u gul xandasidan xor-u rasvo.

Firoq o‘qin pari ko‘ksimga otdi,
Ajab, g‘am tog‘i uzra undi ra’no.

Fano dashtin tutar maskan murodim,
Anga parvo yo‘g‘-u menga tasallo.

Asad, ojizligingni angladingmi,
Nechun bilding o‘zingni buncha dono?

VAFO

1

Sog'inganda izlab bir nishon
Qabring tomon men olaman yo'l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi har chog' men eltaman gul.
Zulfiya

– Garchi yillar changi har nega qodir,
Meni qilolmadi yodingdan nari.
Yana huzuringda turibman, shoir,
Qo'limda bir quchoq bahor gullari.
Ajab, qatra yosh yo'q bu kun ko'zimda,
Ko'ksimda yo'q zarra alamdan tugun.
G'am emas, shodlik bor qora ko'zimda,
Seni qutlagani kelganman bugun.
Tole kulganda ham hijron-baloda
Baham ko'rib sevinch, dard-hasratimiz –
Qirq yil umr ko'rdik birga dunyoda,
Bu kun qirqqa to'ldi muhabbatimiz.
Biz qirq yil yonma-yon, orzuga banda,
Faqat saodatni tarannum etdik.
Vafo deb atalgan toza gulshanda
O'zing orzu qilgan kunlarga yetdik.
Mana, sen joningdan sevgan Vataning,
Toleying timsoli, olamda mumtoz.
Samoviy kemalar, orzuying sening
Lojuvard kenglikka qildilar parvoz.
Sen baxtlar vodiysi atagan diyor,

Ikki daryo yuvgan ikki kokilin –
Bu kun yetti iqlim maxzanicha bor,
Bu kun o'n besh kunlik oy kabi to'lin.
Hulkaring ilmda dovonlar oshib,
Bu kun tahlil qilar sening daftaring,
Yigirma birinchi asrga shoshib,
Betinim yugurar nabiralaring.
Qulog'imga kelar ko'cha-ko'ylardan
Qiyqirib o'ynagan bolalar sasi.
Bular – sen ishongan va sen kuylagan,
Lek sen yetolmagan zafar mevasi.
G'alabani qanday orzu qilarding!
Orzularing edi dilingga qanot.
Sen qanday quvonib toshgan bo'larding –
Yengganin ko'rsayding o'limni hayot!
She'r bo'lib to'lardi qalbingga sening
Maydonlardan oqqan muzaffar turlar...
Hali sovimagan qabringga sening
Zafar salyutidan to'kildi cho'g'lar.
Tobora ketmoqda yoshlik yiroqlab,
Lahza orom bilmas hanuz dil sensiz.
Har bahor kelganda seni so'roqlab,
Olamda yashabman o'ttiz yil sensiz.
Umrim bir on sendan ayru bo'lmadi,
Sochlarimga qo'ndi tola-tola oq.
Yillar seni mendan yiroq qilmadi,
Yillar ikkimizni etdi yaqinroq.
Men seni hech qachon yo'qotganim yo'q,
Doimo yonimda nafas olasan.

Ochiq daftaringni qo‘zg‘otganim yo‘q,
O‘ylayman, kechqurun kelib qolasan.
Tong seni uyg‘otmay men ishga borib,
Kech bog‘da sen uchun uzaman gilos.
Har kun uyimdasan, lek ishdan horib
Narigi xonada yotibsan, xolos...
Avval sen o‘qiysan yangi she’r yozsam,
Senga aytdim sevinch g‘am-u anduhim.
Men o‘zim qay mahal qayda bo‘lsa ham
Sen bilan bog‘larda so‘zlashar ruhim.
Visolga aylandi men uchun hijron,
Yodingga shunchalar o‘rganib qoldim, –
Aziz joning bilan tutashdi-yu jon,
Balki, men o‘zim ham sen bo‘lib oldim.
Hassos qalamingni tutdim qo‘limga,
Sen bo‘lib kuyladim men jon-u dildan.
Seni tirik dedim qizim, o‘g‘limga,
Yo‘qligingni doim yashirdim eldan.
Yulduzlar chiqqanda har kech falakka
Sening ko‘zlaring, deb ko‘kka qarayman.
Kitobing varaqlab tonggacha yakka
Satrlaring bilan o‘zni o‘rayman.
Sen hanuz turibsan o‘ttiz besh yoshda,
O‘shanday g‘ayratli, o‘shanday o‘ktam.
Nega endi sendan bo‘layin boshqa?
O‘ttizga yetmagan yoshdaman men ham.
Shuncha uzoq bo‘lding, bas, endi yetar,
Bir lahza mendan ol tanholik yukin.
Bir lahza, shoirim, boshingni ko‘tar,

Seni qutlagani kelganman bugun.
Ana, ko‘tarildi ufqdan quyosh,
Bu sensan, shu’lalar – zarrin qanoting.
Menga qutlug‘ bo‘lsin vafo va bardosh,
Qutlug‘ bo‘lsin senga yangi hayoting.

2

Xalqqa ayting:
Men aslo o‘lganim yo‘q!
Hamid Olimjon

– Meni, barhayotsan,
Deding, shoiram,
Yorug‘ dunyodagi
Hayotim o‘zing.
Men uni nogahon
Tark aylagan dam
Qoldirgan baytim-u
Bayotim o‘zing.
Ayriliq qismatda
Bor ekan, netay,
Lekin sen bir-la men,
Meni yor desang.
Ne uchun olamdan
Yo‘q bo‘lib ketay,
Meni o‘z yoningda
Doim bor desang.
Hayotdaman,
Faqat

Jismdan xoli,
Dunyoni ko‘ksimda
Sezib turibman.
Fazoda sayr etgan
Kema misoli
Borliq tegrasida
Kezib yuribman.
Hayotimni etmish
Mangu charog‘on
Sening qalbingdagi
Oydin xayollar.
Bevafo dunyoda
Yashaydi inson
Borligi tufayli
Sendek ayollar.
Kechdi tirik umrim
She’r bilan ρayvand.
Hayrat ko‘zi bilan
Atrofga boqdim.

Gohi ρastga tushdim,
Goh chiqdim baland,
Zarafshon suvidek
Hayqirib oqdim.
Ammo hayotimning
Ρok durdonasi,
Men toρgan eng a’lo
She’rim,
Gazalim,

Qalbimning eng yuksak
Shodiyonasi
Sen bo'lding,
Farishtam,
Dono go'zalim!
Yodingdami, bizlar
Ilk ko'rishgan chog'?
Borliq ko'nglimizday
Munavvar edi.
U olam,
U osmon,
U yashnagan bog'
Go'yo baxtimga teng
Muyassar edi.
Kun-kun emas edi,
She'r bahsi aro
Qo'shaloq sham kabi
Yonmasak agar, –
Ko'zlaringday qora
Kechalardan to
Yuzlaringday yorug'
Subhidam qadar.
So'ng...
Bir kun yoningga
Shoshib kelardim,
Fursat to'xtab qoldi
Yo'lda nogahon.
Intilib,
Intilib

Yetolmay,
Dardim –
Dilga oqdi, go'yo
Bir piyola qon.
So'ng...
Sen nola qilding
Sochingni yoyib,
Firuza tomchilar
Oqdi yuzimga.

Keyin...
Hamma narsa
Bo'ldi-yu g'oyib,
Singib qoldi faqat
Chehrang ko'zimga.
Shoiram!
Sen bois
Hayotda qoldim!
Jonim kiprigingda
Tutdi-yu makon,
Ko'zingda ko'zlarim,
Qalbingda qalbim,
Vujudingda o'zim
Bo'ldim namoyon.
Mening ham sozimdir
Qo'lingdagi soz,
Mening ham izim bor
O'tgan yo'lingda.
Qo'shiqlarim qildi
Olamga parvoz,

Dastavval jaranglab
Sening tilingda.
Shundan ikki ilhom
Yor bo'ldi senga,
Qalbingda so'yladi
Hamohang dillar.
Shu bois
Dilrabo
Nozik she'ringga
Quyildi
Jangovar,
Yoniq satrlar.
Hassos she'r taraldi
Koinot bo'ylab,
Unda nolayu bong,
Erk ohangi jam.
O'tli qalbdan chiqqan
Qo'shig'ing tinglab,
O'zbek ovozini
Tanidi olam.
Shoiram!
Mash'aling
Ko'targin baland,
Minglab onalarning
Yuragi senda.
Bir umr yorining
Yodiga payvand
Munis kelinchaklar
Tilagi senda.

Sen o‘tgan yo‘llarda
Chechaklar qolsin,
Sen kirgan xonalar
Bo‘lsin charog‘on.
Ko‘zlaringdan quyosh

Shu’lalar olsin,
Yulduzlarin sochsin
Boshingdan osmon.
Toring ming bulbulday
Toshib sayrasin,
G‘am-u hasratlarni
Aylagin barbod.
Sen shunday yayraki,
Olam yayrasin,
Agar mening ruhim
Bo‘lsin desang shod.
Baland uch,
Olis uch
She’riy samoda,
Men uchun ham yasha,
Kuyla, shoiram!
O‘zing aytganingdek,
Yorug‘ dunyoda
Sen hayot ekansan –
Hayotman men ham!

ISHQ ISTILOSI

Ko'ngul mulkini toroj –
Aylagan ishq istilosidir.
Na bo'lgay oxiri, bu
Istiloning ibtidosidir.

Degaylar, do'stlikdan –
Boshlanur ishq, aksi ermasmi,
Biz endi do'st, dedi yor,
Oh, bu sevgi intihosidir.

Baland parvoz etar yor –
Dil hushi, ko'zlarni dom aylab,
Uni sayd aylamoq yo
Har ko'ngilning muddaosidir.

Nechun husn-u sadoqatni
Egiz tug'mabdi bu olam,
Tabiat qasdidir yoki
Bu ham bitta xatosidir.

Ko'ngil dardini aytib
Yig'lamasman ko'cha-yu ko'yda,
O'zi ko'nglimga dard solgan,
O'zi bu dard davosidir.

Topindim yor – sanamga men
Muhabbat sajdagohida,
Biling, dinsizlar osiymas,
Muhabbatsizlar osiydir.

Jafo qil, mayli, dilbar,
Vasl umidin qo'ymagay Erkin,
Yotar yo'lingda ko'nglim –
Bir shirin so'zning gadosidir.

„SADOQAT"

Xotin der: Qo'rqaman, bir zamon erim
Degan: – Egri yursang joning olaman.
O'ttiz yil yashadik o'shandan beri,
Har kun bir o'limdan omon qolaman.

SODDALIK

Yigit aytar: Jonon, sevar yorim bo'l,
Ardoqlab boshimda olib yuraman.
Jonon aytar, durust, gapingiz ma'qul,
Erimdan maslahat so'rab ko'raman.

TO‘Y OQSHOMIDA

Ikki oshiq o‘xshar yulduzlar aro
Uchib yurgan yondosh sayyoralarga.
Sevgi fazosida ular bor tanho,
Ne parvo yerdagi ovoralarga.
Ular bizdan olis qilmoqda parvoz,
Somon yulduzlari kumush poyandoz...
Siz, tavanxonada, yangalar, jonboz
Chuchvara uyasiz tog‘oralarga.
Ularning qalbida ilohiy tuyg‘u,
Qudrati oliyga turar ro‘baro‘,
Siz esa, notiqlar, qandoq jazo bu,
Hadeb pand o‘qiysiz bechoralarga.
Sevgi – yaproqlarning shitirlashidir,
Sevgi – yulduzlarning shivirlashidir.
Sevgida samoviy sukut yaxshidir,
Siz karnay qo‘shasiz nog‘oralarga.
Intizor jonlarga bering al-amon,
Muhabbat arshida ursinlar javlon.
Ey, sen, go‘zal singlim, oshiq ukajon,
Oq yo‘l, saodatli sitoralarga!

BAHOR MUSTAHZODI

Gul faslida soz oldi yana
ahli navolar,
kuy boshladi yona.
Ne tongki, go'zal bo'ldi jahon,
yer-u samolar,
har tilda tarona.

Ko'k birla zamin bir-biriga
oshiq-u ma'shuq,
bir-birga tutashgan,
Sochmoqda u boron ila
jonbaxsh ziyolar,
ichmoqda bu qona.

Zumrad dalalar bag'riga
o't qo'ydi shafaqgun
raqs etguvchi lola,
Yondirganidek bizni pari
mohiliqolar,
o't nasli – jonona.

Gul boshin egib jilmayadir,
baxtli kelinchak,
mashshotasi – oftob,
Bulbul tilida nola nadir,
zavqli sadolar,
bu – savti zamona.

Men ham qalamim qo'lga olib
o'y suradirman,
tashbih qidirurman,
Yurt sha'niga yozmoq tilagim
hamd-u sanolar
Shayx-u G'afurona.

Ey sen, Vatanim, menga o'zing
bitta jahonsan,
bir o'g'ling erurman,
Jon boricha ko'nglimda senga
sidq-u vafolar, –
sen menga yagona.

Men neki yozar bo'lsam, o'zing
boisi nazmim,
madhim senga doim,
Bitdim yana, jonim, yuragim.
senga navolar,
gul fasli bahona.

G‘AZALNI SEVGAN QIZ

Sen kulib turibsan,
Har qanday shoir
Ko‘zlaring o‘tida erib ketadi.
Hofizi Sheroziy tirilib hozir,
Xolingga dunyoni berib ketadi.
Noto‘kis olamning to‘kis va tugal
Ijodi senmisan, mo‘jiziy tal’at?
Seni paydo etib buncha mukammal,
Hayrat qilmasmikin o‘zi tabiat,
O‘lmas shoirlarning o‘lmas qalami
O‘lmas baytlar bitsa sen uchun, joiz.
Ammo she’riyatning tashbeh olami
Kamoling oldida naqadar ojiz.
G‘azalni sevibsan.
Senga munosib
G‘azal bor ekanmi yorug‘ dunyoda?
Shoir baxtli edi bir tashbeh topib,
Shu kulib turganing qilsa ifoda.
Ming yil, balki, seni qildilar ta’rif,
Gohi oy dedilar, gohida quyosh.
Olam kitobini ko‘rdim axtarib,
Hech shoir qalbingga topmabdi qiyos.

Qoshingga yoy nisbat, sochingga zanjir,
Parilarga nisbat jodu va sehring.
Bayt yo‘qdir olamda qilg‘uvchi tasvir
Oddiygina mehring, fidoyi mehring.
G‘azalni xushlabsan,
Singlim, tashakkur,
Har ko‘ngil seningdek ishqiboz bo‘lsin.
Senga biror satrim bo‘lolsa manzur,
Oyog‘ing ostiga poyandoz bo‘lsin.

PIYOLA

Chinnichi qizlarga

Tuproq o‘zi ne aslan,
Undan guvola bo‘lgay,
Jonon qo‘lida tuproq
Jonon piyola bo‘lgay.

Bir kosa ichra lim-lim
Tillo suvidur oftob,
Tekkach piyolaga nur –
Zarnaqsh tola bo‘lgay.

Tong unga bergay oqlik,
Solgay bahor gullar,
May no‘sh etib shafaqgun
Bechora lola bo‘lgay.

Yo‘q, ul piyola ermas,
San’at ekan mukammal,
Ko‘rganda yetti iqlim
Hayron-u vola bo‘lgay.

Jonon piyola qilgan
Jonon qo‘lidan Erkin
May ichmasa dilida –
O‘lguncha nola bo‘lgay.

O‘ZIMGA SAVOL

(mustahzod)

Umring o‘tadir, sen na xayollar suradirsan,
Beg‘am yuradirsan?
Maqsad ne, farohat ko‘yiga yo‘l buradirsan,
Kimga jo‘radirsan?
Ochilgali ko‘z shartmi ekan toshga bosh urmak,
So‘ng ko‘zni yashurmak,
Ne o‘y bila nodon toshiga bosh uradirsan,
Ne naf ko‘radirsan?
Yillar ko‘pi ketdi, ozi qoldi, ne qilolding,
Kim bo‘la olding?
Qum ustiga sen bo‘yla imorat quradirsan,
Ham aysh suradirsan.
Haddingni bilib chek qo‘y o‘yin, bazm, otirishga,
Ko‘z och, o‘tir ishga.
Ko‘rsatmagay ul kunniki, sen oh uradirsan,
Hayron turadirsan.
Yig‘lab keladir ushbu jahonga aziz inson,
Kulgay u ketar on.
Shoyadki, hayot qarzin uzib ulguradirsan,
Qah-qah uradirsan.

MUBORAKBOD

Ikki yonbag'irdan tushgan qo'sh irmoq
Birikib soy bo'lib oqqani kabi,
Qamar ko'zgisi-yu quyosh shu'lasi
Uchrashib oy bo'lib boqqani kabi,

Qarchig'ay kiftida tutash qo'shaloq
Qanotin falakda qoqqani kabi,
Zaminda uchrashib oftob bilan suv
Zamin ko'ksiga gul taqqani kabi,

G'ijjak torlarida uchrashgan simlar
Kuy bo'lib dillarga oqqani kabi
She'r uzra tutashgan qalam va qog'oz
Yuraklarga olov yoqqani kabi.

Bu kun ikki yurak – ikki kabutar
Bir sevgi navosin chalmoqda hassos.
Ikki chamanzorning ikki chechagi
Bir yangi gulshanga solmoqda asos.

Bu gulshan uyingiz muborak bo'lsin,
Muhabbat to'yingiz muborak bo'lsin.

MENING YORIM

(aytishuv)

Mening yorim kichgina, yo‘qdekkina,
To‘pponchadan otilgan o‘qdekkina.
Totli so‘zin eshitib ertalabdan
Kechga qadar yuramiz to‘qdekkina.

Mening yorim qoracha, xoldekkina,
Arining dumidagi boldekkina.
Bizning ahvol – quymichga ari bosib
Belangi davolagan choldekkina.

Mening yorim ingichka, mo‘rdakkina,
Mo‘rdakkina bo‘lsa ham zo‘rdakkina.
Tunov kun bir ko‘tarib yerga urdi,
G‘ozgina edim, bo‘ldim o‘rdakkina.

Mening yorim sayroqi qushdekkina,
Sayrog‘i qulog‘imga xushdekkina.
Gaplarini tinglayman sakrab-sakrab,
Hammomdan keyin sovuq dushdekkina.

Mening yorim kampir-u qizdekkina,
Sizdek edik, siz bo‘ling bizdekkina.
Muzxonada har narsa uzoq turar,
Uzoq yashab yuribmiz muzdekkina.

DILDA ISHQ DARYOCHADIR...

Ahli she'r, balki, kitobim
Nazmi ishq deb ochadir,
Yo'q, kitobim sevgining
Devoniga debochadir.

Ko'zlaring orzusida
Tuzdim navo, zebo sanam,
Nastarin ko'z ochib aytsin,
She'ri ham zebochadir.

Balki, u zebocha ermas,
Balki, u bir g'unchadir,
Husning oftobida ammo
Kun sayin zeb ochadir.

Voh, ajab, nomingni aytsam
Lol bo'lur til ham ko'ngil,
She'r ipi nogoh qalamning
Ignasidan qochadir.

Erkinning devonidan hech
To'lmasa ko'ngling, ne tong,
Tilda she'r bir qatra bo'lsa,
Dilda ishq daryochadir.

BAHONA QILMAS

Chin ma'shuq ulki, oshiq
Ashkin ravona qilmas.
Chin oshiq ulki, ishqin
Elga fasona qilmas.

Chin dilbar ulki, doim
So'zida ustivordir,
Aylab visolga va'da,
So'ng yuz bahona qilmas.

Chin shoir ulki, o'sgan
Bog'ini vasf qilgay,
Naqshin qafas ichida
Bulbul tarona qilmas.

Ko'zimni tiyra deb yor,
Etmas yuziga ko'zgu,
Kipriklarimni tig' deb
Sochiga shona qilmas.

Kurtak yozib ko'ngulda
Gul ochdi g'uncha ishqim,
Umid ko'zim o'shanda,
Tokay nishona qilmas.

Qonim sharobin ichsang,
Totsang jigar kabobim,
Zabt etmay o'zni Erkin
Bazmi shohona qilmas.

TOLA SOCH

Ul pari avlodidanmu,
Yo bashar farzandimu?
Habibiy

Ayt, bu soching tolasimu,
Jon ipin bir bandimu,
Yoki soching tolasiga
Jon ipim bog'landimu?

Tola-tola sochlaringdan
Dil yo'qotmish tinchini,
Yo bu tolang dil hushiga
Qil tuzoq monandimu?

Kecha chiqding soch uchiga
Paxtadan bog'lab pilik,
Hech qachon e'zozli paxtam
Shuncha ardoqlandimu?

Sochlaring ishqi, bilolmam,
Menga rohat, yo azob,
Bu ilonning jonga solgan
Zahrimu yo qandimu?

Soch meni devona etgay,
Yo magar shoir qilur,
„Ul pari avlodidanmu,
Yo bashar farzandimu?"

QUYOSH

Dilbarim husniga ko‘kda
Mahliyo bo‘lsin quyosh,
Mahliyo ermas, ko‘yida
Bir gado bo‘lsin quyosh.

Ko‘rmasa bir dam jamolin
Men kabi zor yig‘lasin,
Abr ichiga berkinib
Motamsaro bo‘lsin quyosh.

Gar havas qilsa nigorim –
Husniga, barq ursin ul,
Rashki kelsa kuysin-u
Yonsin, ado bo‘lsin quyosh.

Ul kecha yor vasliga
Yetdim deganda otdi tong,
Qildi dildordan judo,
Yuzi qaro bo‘lsin quyosh.

Deydilar, ishq otashidan
Oftob ham taft olur;
Gar isinmoq istasa
Qalbimga jo bo‘lsin quyosh.

Bor ishonchim, bir kuni
Yongay quyosh qutb uzra ham,
Muz yuraklarga va lekin
Noravo bo'lsin quyosh.

So'nmasin olam charog'i,
Tinmasin nur chashmasi,
To muhabbat umridek
Umri baqo bo'lsin quyosh.

MUNDARIJA

Sevgi shunday 3
„Qaro qoshing“ 4
Sevgi 5
„To tirikdirki tabiat“ 6
„Oy fonusin ko‘tardi osmon“ 7
Kimni etmas bu ko‘ngil shaydo 8
Azganush 9
Bir tomchi yosh 10
Sadoqat 11
Kuy avjida uzilmasin tor 11
Kecha va kunduz 12
Tun bilan yig‘labdi bulbul... 13
Barcha shodlik senga bo‘lsin 14
G‘uncha 16
Surma 17
Lola sayli 18
Yo‘q emish orzuda ayb 19
Kimda iqtidor yo‘qdir... 20
Senga baxtdan taxt tilarman 21
Uyg‘otmagil... 22
Uzum 23
Rashkim 25
Dutorim tori ikkidur 26
Sevgini tortib bo‘lurmu... 28
Oyning o‘n beshi qorong‘u 29
Qalb sarhisobi 30
Gullar bazmi 31
Bir go‘zalkim 33
O‘rtada begona yo‘q 35
Istak 36
Qalb shunday ummonki... 37
Bir qadam 38
Kerak bo‘lsa 40

Turk go'zali 42
Sevgi kelsa 43
Sir aytar g'unchaga g'uncha... 44
Biz anglamagan jahon ekan ishq 45
Menda bor ishq ichra g'am... 46
Yuragingda makon tutgan qul 47
Qit'a 48
„Qizim, baxtli kunda dunyoga kelib" 49
Vatan qadri 50
Sen uchun 51
„Siz mening osmonim, mohitobimsiz" 51
Majnuntol 52
Buloq 55
„Uchrashuvga oshiqadi dugonang" 56
Yo'llar 57
Muhabbat birla 58
Sevgi otashi 59
Yo'q, halovat istamayman 60
Yoshlik 61
Yurak va aql 63
Go'zallik 65
Kutish soatlari 66
Kipriklarim 67
Oyga 68
Dildorga noma yozdim 69
Chashma 71
Kiprigingdan o'q uzib 72
Barg 73
Ko'zing 74
Bandi zulf 75
Dostonga yoz 76
Samar bo'lg'ay 77
Hijron yuki 78
Parishonlik 79
Jon talash 81
Shohigul 82
„Ajab, yoshlikni ne qildim" 83
Firoq haqida 84
„Oydin kecha" 86

Shahr aro 88
Uch balodan saqlasin 89
Jon tugamaydir 90
Na qilsin 91
Gulnorini o'ρ... 92
El netib topqay meni... 94
Sakkizinchi mart 95
„Tinglayman ko'ρ o'zbek so'zlarin" 97
„Ρarivash chehrasiga bersa oro" 98
Vafo 99
Ishq istilosi 108
„Sadoqat" 109
Soddalik 109
To'y oqshomida 110
Bahor mustahzodi 111
G'azalni sevgan qiz 113
Ρiyola 115
O'zimga savol 116
Muborakbod 117
Mening yorim 118
Dilda ishq daryochadir 119
Bahona qilmas 120
Tola soch 121
Quyosh 122

V 89 Vohidov, Erkin.

Dilda ishq daryochadir... [Matn]: She'riy to'plam / E. Vohidov. – T.: „Ziyo nashr" Mas'uliyati cheklangan jamiyati, 2019. – 128 b.

ISBN 978-9943-5705-8-0

UO'K: 821.512.133-1
KBK 84(5O')6

SHE'RIYAT DURDONALARI

ERKIN VOHIDOV

Dilda ishq daryochadir...

• SHE'RIY TO'PLAM •

Ahli she'r balki kitobim
Nazmi ishq deb ochadir,
Yo'q, kitobim sevgining
Devoniga debochadir...

16+

ZIYO NASHR

t.me/ziyonashr
fb.com/ziyo.nashr
ziyonashr@mail.ru

SCAN ME

ISBN 978-9943-5705-8-0

9 789943 570580